

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/25.08.2021.Fil.01.16 RAQAMLI ILMY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

XODJIMATOV MINXAJIDIN MIRZAJANOVICH

**XX ASR O‘ZBEK SHE‘RIYATIDA MILLIY O‘ZLIKNING
POETIK TALQINI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

**Оглавление автореферата диссертации на соискание ученой степени доктора
филологических наук (DSc)**

Contents of the dissertation abstract for the degree of Doctor of Philology (DSc)

Xodjimatov Minxajidin Mirzajanovich

XX asr o‘zbek she‘riyatida milliy o‘zlikning poetik talqini.....3

Ходжиматов Минхажидин Мирзажанович

Поэтическая интерпретация национальной идентичности в узбекской поэзии
XX века.....39

Xodjimatov Minxajidin Mirzajanovich

Poetic Interpretation of National Identity in XXth-Century Uzbek Poetry.....79

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....85

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/25.08.2021.Fil.01.16 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

XODJIMATOV MINXAJIDIN MIRZAJANOVICH

**XX ASR O‘ZBEK SHE’RIYATIDA MILLIY O‘ZLIKNING
POETIK TALQINI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2DSc/Fil612 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati Ilmiy kengashning veb-sahifasida uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) www.uzmu.uz va “Ziyonet” axborot-ta’lim portali www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Boltaboyev Hamidulla Ubaydullayevich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xamrakulova Xurshida Kuvvatovna
filologiya fanlari doktori, dotsent

Hamdamov Ulug‘bek Abduvahobovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yashar Qosimbeyli
Ozərbayjon Fanlar akademiyasining bosh ilmiy xodimi, filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/25.08.2021.Fil.01.16 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “___” _____soat ___dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil:100100, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel: (99890) 318-23-30; e-mail. www.nuu.uz).

Dissertatsiya bilan Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel: (99890)318-23-30; e-mail. www.nuu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ da tarqatildi.
(2025-yil “___” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

I.J.Yo‘ldoshev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi o‘rinbosari, filol.f.d., professor

M.B. Xujamkulova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.f.d., dotsent

B.B.To‘raeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., dotsent

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida milliy o'zlik tushunchasi ruhiy-psixologik holatlarni fikr, obraz, ramz va metaforalar orqali badiiy tasvir obyekti maqomiga ko'targan, an'anaviy yondashuvlarni inkor etuvchi modernistik, adabiy matnga bir butun tizim sifatida qaraladigan, asarning ichki mantig'i va elementlari o'rtasidagi bog'liqlik uyg'unligidagi struktural, adabiyotda ijodiy erkinlik va eksperimentlar uchun asosiy maydon yaratuvchi, milliy va global adabiy merosni tahlil qilishda yangi usullar, intertekstuallik va simvolik strukturalar orqali idrok imkoniyatini yaratuvchi postmodernistik va adabiy matnni dinamik, ko'p qirrali va interpretatsiyaga ochiq obyekt sifatida tahlil qilish asosidagi fikr va mohiyatni yoqlovchi poststruktural hamda ma'naviy-axloqiy, an'anaviy oilaviy qadriyatlar, milliy stereotiplar, identiklik nuqtai nazaridan gender adabiyotshunosligida adabiy-estetik kategoriya sifatida tadqiq etilmoqda.

Milliy o'zlikni anglash dunyo adabiyotshunosligida "identiklik" (inglizcha: "identity") atamasi orqali kirib keldi va u psixoanalitik, milliy modifikatsiya, etnik o'ziga xoslik kabi yondashuvlar asosida etnik identiklik tarzida qabul qilindi. Badiiy adabiyotda uni namoyon etuvchi belgilar – milliy tilning ifoda imkoniyatlarining kengayishi, milliy ruhni namoyon etuvchi personaj va xarakterlar, mentalitetni ifodalovchi tasviriy vositalar, milliy urf-odatlarini ko'rsatuvchi syujet va detallar orqali jonli obrazlarda aks etishi adabiyotshunoslikning tadqiq obyekti qilib belgilandi. Adabiyotshunoslik ilmi milliy o'ziga xoslik shaxs (individ)ni boshqa millat vakillaridan ajratuvchi vositagina emas, balki u ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida butun millatga taalluqli bo'lgan etnik markerlar bilan ifodalangan erk va ozodlik tuyg'ularining in'ikosi, millatning o'z-o'zini anglash darajasi bilan bog'liqligini ko'rsatib berdi. Ana shu ma'noda milliy o'zlikni adabiyotda millatning ichki ruhiy holati, kechinmalari, his-tuyg'ulari, ma'naviy dunyosi, o'y-fikrlari, maqsad va maslagi hamda kayfiyatini ifodalovchi mohiyat sifatida o'rganish ilmiy zaruratga aylandi.

XX asr dunyo she'riyatida o'ziga xos fenomenal hodisa hisoblangan milliy o'ziga xoslik konsepsiyasi, uning poetik ifodasi, badiiy-tadrijiy takomili, davrga xos adabiy-estetik qarashlar, ularning millatlar, davlat va jamiyat taraqqiyotiga ta'siri, badiiy konsepsiyaning yangilanishi xamda jamiyat dunyoqarashini yangilashdagi o'rni masalasini o'rganish dolzarb ilmiy muammolardan hisoblanadi. Millatlarning o'zligini anglashi, mustaqillik uchun kurashi jarayonida milliy she'riyat xalqlarning ma'naviy kamoloti, milliy o'zlik tafakkuri va adabiyoti rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatib keldi. Bu davr jahon adabiy tamaddunida milliy o'zlikni anglashga bo'lgan ehtiyojning yuqori bosqichga ko'tarilganligi bilan xarakterlanadi.

"Buyuk ma'rifatparvar bobolarimiz tomonidan olg'a surilgan g'oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma'rifiy va huquqiy-axloqiy qarashlar, turli millat va elatlar o'rtasida bag'rikenglik va hamjihatlik tamoyillarini qaror toptirish bilan birga, milliy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan intilishlar hozirgi murakkab va tahlikali zamonda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat

namunasidir”¹. Ana shu ma’noda, Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessansni bunyod etish, uning ma’naviy poydevorini mustahkamlash bilan bog‘liq yangilanishlar jarayonida Vatan ozodligi, millat o‘zligi, istiqloq tafakkuri bilan yo‘g‘rilgan boy adabiy merosni teran o‘rganish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Bularni amalga oshirishda istibdod davrida vujudga kelgan yangi she’riyat mazmun-mundariyasi asosini tashkil qiladigan, jadidlarga izdosh umuminsoniy g‘oyalar – erk, murossasizlik, milliy uyg‘onish, milliy taraqqiyot, o‘zlikni anglash va hurriyat motivlarining davomiyligi; o‘zbek she’riyatining tadrijiylik asosida badiiy obraz va timsol, konflikt va xarakter, uslubiy izlanishlar, poetik mantiq, an’ana va novatorlik kabi jihatlarini o‘rganish hamda XX asr o‘zbek she’riyatiga xos milliy o‘zlikning poetik talqinini tadqiq qilish muhim va dolzarb ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”, 2024-yil 12-yanvardagi PQ-19-son “Xorijiy davlatlarda O‘zbekiston tarixi va madaniyati, o‘zbek tili va adabiyotini o‘rganishni keng targ‘ib qilish orqali turistlar oqimini ko‘paytirish hamda mamlakatimiz nufuzini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². Milliy o‘ziga xoslik tushunchasining adabiy-badiiy, falsafiy, sotsiologik, etnografik, psixologik jihatlariga doir izlanishlar dunyoning yetakchi oliy ta’lim muassasalarida, jumladan, Michigan universiteti (AQSh), Humboldt universiteti (Germaniya), Edinburg universiteti (Buyuk Britaniya), Kembrij universiteti (Buyuk Britaniya), M.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Sankt-Peterburg davlat universiteti, M.Gorkiy nomidagi Jahon adabiyoti instituti

¹ Мирзиёев Ш. 2023 йил 11 декабрда “Жадидлар: миллий ўзлик, истиқлол ва давлатчилик ғоялари” мавзусида бўлиб ўтган конференция иштирокчиларига йўллаган табриги/<https://demokrat.uz/>

² Диссертация мавзуси бўйича хорижий илмий тадқиқотлар шарҳи куйидаги манбалар асосида амалга оширилди: <https://msu.edu/>, <https://www.hu-berlin.de/>, <https://www.ed.ac.uk/>, <https://www.cam.ac.uk/>, <https://msu.uz/>, <https://www.kilis.edu.tr/>, <https://science.gov.az/az/institutes/31>, <https://spbu.ru/>, <https://imli.ru/>, <https://enu.kz/ru>.

(Rossiya), Kilis 7 Aralik universiteti (Turkiya), Ozarboyjon Milliy ilmlar akademiyasi Nizomiy nomidagi Adabiyot instituti, L.N. Gumilyov nomidagi Yevroosiyo milliy universiteti (Qozog‘iston)da, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, Farg‘ona davlat universiteti, Andijon davlat universiteti (O‘zbekiston)da ijodkorlarning poetik uslubi, badiiy tafakkuri, g‘oyaviy-estetik konsepsiyalarini milliy xususiyatlar uyg‘unligida o‘rganish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jahon she‘riyatida milliy o‘zlikning mohiyat sifatida asoslanishi to‘g‘risida dunyo miqyosida quyidagi ustuvor mavzularda tadqiqotlar amalga oshirilmoqda, jumladan, zamonaviy Amerika she‘riyatida milliy identlik va ma‘naviy huquq masalasida muallif konsepsiyasining jamiyat tafakkuriga ijobiy ta‘siri ko‘rsatilgan (Michigan universiteti)³; milliy o‘ziga xoslik tafakkurini muayyan tarixiy sharoit, siyosiy manfaat va ijtimoiy raqobat natijasida vujudga kelishini hamda uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini ko‘rsatib berilgan (Humboldt universiteti)⁴; Germaniyada Rodenbax, Jakob va Velgelm Grimmlar, Hofman fon Fallersleben ijodida milliy o‘zlikning tarixiy-madaniy kontekstual o‘rni aniqlangan⁵ (Edinburg universiteti); milliy mansublik va o‘ziga xoslikning xarakterli jihatlari va uning besh tamoyili (psixologik, madaniy, tarixiy, geografik, siyosiy)⁶ asoslangan (Kembrij universiteti); etnomadaniy identlikning mohiyati, uning genezisi, sivilizatsiyalararo rivojlanishi, uyg‘unlashuv jarayonlari⁷ tadqiq qilingan (M.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti); turk she‘riyatida milliy uyg‘onish, o‘zlik, til, tarixiy birlik ruhi bilan bog‘liq ramziy poetik ifodalarning milliy tafakkur taraqqiyotidagi o‘rni⁸ ochib berilgan (Kilis 7 Aralik universiteti); milliy o‘zlikning badiiy adabiyotdagi in‘ikosi va inson kamolotiga ta‘siri masalalariga⁹ e‘tibor qaratilgan (Ozarboyjon Milliy ilmlar akademiyasi Nizomiy nomidagi Adabiyot instituti); rus adabiyotining jamiyat tafakkurida madaniy merosga hurmat tuyg‘usi va milliy iftixor, milliy o‘zlik ruhini shakllantirishdagi ahamiyati aniqlangan (Sankt-Peterburg davlat universiteti); S.Yesenin she‘riyatida milliy xarakter, milliy ruh va milliy psixologiyaning poetik ifodasi, uning rus adabiyotida madaniy qadriyatlarni namoyon etishdagi o‘rni¹⁰ aniqlangan (M.Gorkiy nomidagi Jahon adabiyoti instituti); A.S.Pushkin asarlarida milliy xarakter va o‘ziga xoslikning muallif

³ David W.L. The Self in the Song: Identity and Authority in Contemporary American Poetry. A dissertation submitted in partial fulfillment of the requirements for the degree of Doctor of Philosophy (English Language and Literature) in the University of Michigan, 2014. – 301 p.

⁴ Felix K., Nikolaus W. On the Origins of National Identity. Rationality and competition. Discussion Paper No. 217 December 13, Humboldt-Universität zu Berlin, 2019. – 186 p.

⁵ Anna Jane Schnitker. Writing the Nation. The contribution of writers to the shaping of a national identity in nineteenth-century Germany and Flanders. A dissertation submitted in partial fulfillment of the requirements for the degree of Doctor of Philosophy (English Language and Literature) in the University of Edinburgh, 2004. – 357 p.

⁶ Guibernau M. The Identity of Nations. Cambridge: Polity Press, 2007.

⁷ Малыгина И. Этнокультурная идентичность: онтология, морфология, динамика. 24.00.01 – теория и история культуры. Автореф. дисс. на соис... док. философ. наук. – М., 2005. – 23 с.

⁸ Fatih Kanter. Milli Edebiyat Dönemi Türk Şiirinde Kimlik. <https://kilis.academia.edu/MFatihKanter>.

⁹ Tahirə Məmməd. Milli kimlik və bədi mətn. Bakı: Elm və təhsil, 2020. – S. 137.

¹⁰ Бабицына Н.Н. Поэтика национального характера в творчестве С.А.Есенина // Автореферат на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – М., 2013. – С.30.

pozitsiyasi uyg'unligidagi poetik ta'siri aniqlangan¹¹ (Gumilyov nomidagi Qozog'iston Yevroosiyo universiteti).

XX asr jahon she'riyatida global ahamiyat kasb etgan milliy o'zlik mohiyatiga doir quyidagi ustuvor yo'nalishlarda keng ko'lamli tadqiqotlar amalga oshirilmoqda: tarixiy poetikada milliy xotira va milliy ruhni metaforik obrazlar orqali qayta badiiy talqin qilish; ekzistensial poetikada lirik qahramonning shaxsiy "men"i va milliy "men"i o'rtasidagi keskin ziddiyatlar, milliylikning ma'naviy inqirozi; postmodern poetikada milliylikning dekonstruksiyasi, turli madaniy kodlar va intertekstlarning matnga aralashuvi; diaspora va migratsiya she'riyatida milliy o'zlik natijasida ikki tilli poetikaning shakllanishi; mifopoetika va etnopoetikada mifologik obrazlar orqali milliy ruhni tiklash va boshqalar.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Badiiy adabiyot, xususan, XX asr o'zbek she'riyati tadqiqi, jumladan, milliy o'zlik, milliy ruh, milliy istiqloq tafakkuri, ushbu tushunchaning she'riyatdagi poetik yangilanish tamoyillari talqini bilan bog'liq mavzularda 9 ta doktorlik¹², 16 ta nomzodlik¹³ dissertatsiyalari

¹¹ Уразаева К. Авторская позиция в художественном произведении как проявление идентичности. – М., 2021. – С. 34.

¹² Касымов Б. Зарождение и развитие узбекской революционной поэзии. Дисс. на соис. ...док. фил. наук / Ташкент, 1984. – 256 с.; Акрамов Б. Ҳозирги ўзбек лирикасида поэтик образ муаммоси. Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 1991. – 393 б.; Каримов Н. XX аср ўзбек адабиёти тараққиётининг ўзига хос хусусиятлари ва миллий истиқлол мафқураси. Филол. фан. д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 1993. – 49 б.; Болтабоев Ҳ. XX аср бошлари ўзбек адабиётшунослиги ва Фитратнинг илмий мероси. Филол. фанл. докт... дисс. – Тошкент, 1996. – 367 б.; Афоқова Н. Ўзбек жадид адабиётида шеърини шакллар тараққиёти тамойиллари. Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 2005. – 281 б.; Ҳамдамов У. XX аср ўзбек шеърини бадий тафаккур тартибидининг ижтимоий-психологик хусусиятлари. Филол. фан. д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 70 б.; Назарова Ш. XX аср бошлари ўзбек шеърининг янгиланиш тамойиллари (янги ўзбек шеърини контекстида). Филол. фан. д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2022. – 76 б.; Davlatova A. Abdulla Oripov she'riyatida poetik tafakkur tadriji. Fil. fan. d-ri... diss. avtoref. – Tashkent, 2022. – 73 б.; Pirnazarova M. Omon Matjon she'riyati badiiyati. Fil. fan. d-ri... diss. avtoref. – Tashkent, 2024. – 70 б.; Ҳожиёва Ш. Чўлпон ижодида жаҳон эстетик тафаккурининг поэтик синтези. Филол. фан. д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2025. – 56 б.

¹³ Абдукадыров А. Поэтические образы в узбекской советской поэзии периода Великой Отечественной войны (проблемы традиции и новаторства). Автореф. дисс. на соис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1986. – 56 б.; Қосимов Я. Ўзбек шеъринида поэтик янгиланиш жараёни (60-йиллар шоирлар авлоди мисолида). Филол. фан ном... дисс. – Тошкент, 1993. – 154 б.; Хўжамуродов И.Р. Ўзбек халқи миллий (этник) ўзлигини англашнинг шаклланиши муаммолари ва унга исломнинг таъсири. Фалс. фан. докт... дисс. – Тошкент, 1994. – 258 б.; Давурбоева Н.А. Фитрат драмаларида Миллий овозлик ғоясининг талқини. Филол. фанл. ном. ...дисс. – Тошкент, 1999. – 154 б.; Эрназарова Г. XX аср ўзбек поэзиясида миллий тафаккур ва унинг бадий талқини (Чўлпон, Ғ.Ғулом, А.Орипов шеърини мисолида). Филол. фанл. номз. ... дисс. – Тошкент, 2005. – 136 б.; Алдашева Ш.Ж. XX аср охири ўзбек лирикасида поэтик шакллар ва ижодий индивидуаллик. Филол. фанл. ном... дисс. Автореф. – Тошкент, 2008. – 46 б.; Холиқова Н.Ж. Миллий уйғониш даври ўзбек шеъринида овозлик харакатининг бадий талқини. Филол. фанл. ном. ...дисс. – Тошкент, 2009. – 148 б.; Джуманиязова Н.А. Истиклол даври ўзбек лирикасида услубий изланишлар. Филол. фанл. ном. ...дисс. – Тошкент, 2011. – 145 б.; Тажибаева Д.Э. XX асрнинг сўнги чораги ўзбек шеъринида поэтик услуб муаммолари. Филол. фанл. бўйича фалс. докт. (PhD) ...дисс. автореф. – Фарғона, 2018. – 52 б.; Орипова Г.М. Мустақиллик даври ўзбек шеърининг ғоявий-эстетик ва бадий хусусиятлари. Филол. фанл. бўйича фалс. докт.(PhD)... дисс. автореф. – Фарғона, 2019. – 58 б.; Пардаев З.А. Истиклол даври шеъринида халқона пафоснинг янгиланиши. Филол. фанл. бўйича фалс. докт. (PhD) ...дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 45 б.; Фазлиддинов Б.К. XX аср ўзбек фалсафий шеърини. Филол. фанл. бўйича фалс. докт. (PhD) ...дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 54 б.; Abdulhakimova O.N. Abdulla Oripov adabiy-estetik qarashlari. Filolog. fanl. bo'yicha fals. dokt. (PhD)...diss. avtoref. – Tashkent, 2022. – 52 б.; Kuchkarov O.A. XX asrning 20–30-yillar o'zbek she'riyatida poetik motivlar. Filol. fanl. bo'yicha fals. dokt. (PhD)...diss. avtoref. – Andijon, 2022. – 70 б.; Mullaxo'jayeva R.T. 80-yillar o'zbek she'riyatida poetik tafakkurning yangilanishi va Shavkat Rahmon jodi. Filol. fanl. bo'yicha fals. dokt. (PhD) ... diss. avtoref. – Tashkent, 2022. – 56 б.; Yuldasheva X.M. Erkin Vohidov she'riyatida milliy ruhning poetik ifodasi. Filol. fanl. bo'yicha fals. dokt. (PhD) ...diss. avtoref. – Farg'ona, 2023. – 57 б.

himoya qilingan. Shuningdek, boshqa ilmiy tadqiqotlarda ham ijodkorning milliy o'zlik va istiqloq tafakkuri, tarixiy o'tmish birligi, jadidlarga izdosh umuminsoniy g'oyalar, ijod tabiati va hurriyat motivlarining tadrijiy ifodasi bo'yicha tahliliy qarashlar bildirilgan, alohida monografiya¹⁴ va ilmiy maqolalar chop etilgan.

XX asr o'zbek she'riyati, jadidlar ijodini milliy o'zlik nuqtai nazaridan jiddiy o'rganish, poetik tadqiq qilish o'tgan asr o'rtalaridan boshlangan bo'lsa-da, milliy o'zlikka tamomila zid bo'lgan mustabid tuzum mafkurasi ta'siri va tazyiqi bu tadqiqotlarda yaqqol sezilib turadi.

She'riyatda milliy o'zlikning poetik talqini masalasi jahon adabiyotshunosligida muayyan darajada o'rganilgan. XX asr o'zbek she'riyatida milliy o'zlikning poetik talqini masalasi yuzasidan bir qator ilmiy ishlarda ayrim qarashlar va ilmiy mulohazalar bildirilgan. O'tgan asr adabiyoti va she'riyati badiiy mahorat, estetik tamoyillar, milliy istiqloq she'riyati nuqtai nazaridan yillar va davrlar kesimida tadqiq qilingan bo'lsa-da, XX asr o'zbek she'riyatida milliy o'zlikning poetik talqini va tadrijiy takomili яхлит umummilliy ruh hamda milliy o'zlik nuqtai nazaridan, bir-biriga uzluksiz ravishda bog'lanib kelgan yuz yillik tarixiy adabiy jarayon sifatida tadqiq etilmagan.

Ushbu dissertatsiya mazkur ilmiy muammoning ko'lami va tadrijiy qamrovi monografik asosda tadqiq qilinganligi bilan shu paytgacha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlardan farq qiladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasining "Badiiy matn va uning tahlili" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi va "O'zbek, rus, ingliz tillarida Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasining yangi nashrini yaratish" mavzusidagi AL-7723061982-raqamli loyiha (2024-2025) doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi XX asr o'zbek she'riyatidagi milliy o'zlik ruhini poetik tadqiq qilish orqali inson o'zligini anglashida she'riyatning badiiy-estetik vazifasini ishlab chiqish va adabiyotda milliy o'zlikni aks ettirish jarayoni dinamikasini ko'rsatishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

milliy o'zlik tushunchasini anglashda she'riyatning badiiy-estetik vazifasini o'rganish, milliy xarakter shakllanishida tarixiy tafakkur va badiiy talqin ehtiyojini tadqiq qilish;

jadid she'riyati zamiriga singdirilgan milliy o'zlik tuyg'usini ijtimoiy-ma'rifiy

¹⁴ Қўшжонов М. Ўзбекининг ўзлиги. – Тошкент, 1981; Шарафиддинов О. Истиқлол фидойилари. – Т.: Шарқ, 1993. – 80 б.; Алимова Д.А. Жадидчилик ҳаракатининг ижтимоий-сиёсий моҳияти ва жадидлар тафаккури // Жадидчилик, ислохот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. – Тошкент, 1999. – 52 б.; Маҳмудов Ф. Жадид адабиётида миллий истиқлол мавзуи. – Т.: Ўзбекистон, 1999. – 112 б.; Қосимов Б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Т.: Маънавият, 2002. – 296 б.; Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Т.: Ўзбекистон, 2008. – 375 б.; Расулов А. Бетакрор ўзлик. – Т.: Мумтоз сўз. 2009. – 137 б.; Арифханова З. Формирование национальной идентичности узбеков // Узбеки. – Москва, 2011. – 688 с.; Раҳимжонов Н. Истиқлол ва бугунги адабиёт. – Т.: Ўқитувчи, 2012. – 221 б.; Назарова Ш. XX аср бошлари ўзбек шеърятининг янгиланиш тамойиллари. – Т.: Академнашр, 2022. – 256 б.; Хojiyeva Sh.X. Cho'lpon va jahon estetik tafakkuri. Monografiya. – Т.: Universitet, 2025. – 254 б.

hodisa sifatida baholash;

istibdod davri o'zbek she'riyatida milliy o'zlikning badiiy in'ikosi va uning ifoda shakllarini tahlil qilish;

o'zbek she'riyatida jadidlarga izdosh g'oya va motivlarning davomiyligini tadqiq qilish, milliy o'zlik ruhi tasvirida yangicha talqinlar va obrazlar tizimining poetik imkoniyatlarini ochib berish;

XX asr o'zbek she'riyati taraqqiyotida milliy o'zlik ruhining tadrijiy rivojini ramziy obraz va vositalar orqali tahlil qilish;

she'riy asarlardagi istiqloq ruhi tasvirida jahon adabiyoti namoyandalarining ta'sirini ko'rsatish hamda o'zbek she'riyatida istiqloq orzusining ramziy-majoziy shakllardagi ifodasini tadqiq etish;

o'zbek she'riyatida yangicha tafakkurning shakllanishi va ozod ruh talqinlarini dalillash, istiqloq ruhining badiiy in'ikosida ayollar she'riyatining o'ziga xos qirralarini tadqiq qilish;

milliy o'zlikni anglash evrilishlar jarayonida yangi istiqloqga eltuvchi isyonkor she'riyatning maydonga chiqishi bilan bog'liq tarixiy jarayonning badiiy-falsafiy asoslarini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida A.Fitrat, A.Cho'lpon, G'.G'ulom, Oybek, H.Olimjon, M.Shayxzoda, Zulfiya, Mirtemir, Shukrullo, S.Zunnunova, E.Vohidov, A.Oripov, O.Matjon, R.Parfi, O.Hojieva, H.Xudoyberdieva, U.Azim, Sh.Rahmon, X.Davron kabi shoirlarning milliy o'ziga xoslikni anglash va uning badiiy ifodasi aks etgan asarlariga murojaat qilindi.

Tadqiqotning predmetini o'zbek she'riyatida milliy o'zlik ruhini poetik tadqiq qilish orqali inson ma'naviy kamoloti, o'zligini anglashida XX asr she'riyatining badiiy-estetik o'rnini tarixiylik va tadrijiylik asosida uzviylik aspektida o'rganish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik metodlardan; ayrim she'riy asarlar tahlilida semantik-struktural metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jadid adabiyotiga izdosh g'oyalar (milliy uyg'onish, erk, taraqqiyot, o'zlikni anglash va hurriyat) orqali ijtimoiy lirikaning jamiyat tafakkurini o'zgartiruvchi adabiy-estetik kuch sifatidagi ma'naviy qimmat, badiiy uslubi, jamiyat va inson hayotida muhim sanalgan madaniy qadriyatlardan iborat g'oyaviy-estetik xususiyatlarini tashkil etuvchi poetik asoslari dalillangan;

jadid adabiyoti (Abdulhamid Cho'lpon, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy)da aks etgan milliy she'riyat taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatgan erksevarlik ruhidagi jasorat, milliy hamjihatlik kabi qadriyatlarning lirik qahramon xarakteridagi ifodasiga ko'ra, jamiyat va millat madaniyatida yangi progressiv ma'no va tushunchalar, simvol va obrazlar, ramz hamda an'analar tizimidan iborat madaniy kodlar strukturasidagi shakl va mazmun mutanosibli badiiy eksperimental asosda aniqlangan;

she'riyatda milliy o'zlik ruhini ifoda etishda barmoq va sarbast vaznining milliy she'riyat an'naviy ritmi va uslubiga badiiy yangilik, zamonaviy mazmun va

g'oya, badiiy shakl elementlarini qo'shish orqali tarkiban yangilangan janrlar transformatsiyasiga ko'ra, erkin tafakkur va tanqidiy pozitsiyani ifoda etuvchi badiiy hodisa bo'lgan "murosasiz motivlar"ning asar strukturasi singdirilishi isbotlangan;

XX asr jahon she'riyatiga xos shaxs erkinligi, ichki dunyosi, qaror va iztiroblari bilan bog'liq ekzistensiallik E.Vohidov (Gyote, Rasul Hamzatov, Nazrul Islom), qahramonlarning ruhiy kechinmalari va psixologik holatlarini poetik vositalar orqali chuqur ochib berishga qaratilgan badiiy psixologizm Abdulla Oripov (Dante), badiiy obrazlarga ramziy, metaforik, falsafiy, ijtimoiy, psixologik mazmun bag'ishlovchi simvolizm Rauf Parfi (Robindranat Thakur) va an'anaviy shakl, tuzilma, badiiy qoidalar asosida yangi kompozitsion, ritmik, stilistik, janriy yechimlar ifodasi aks etgan formal eksperimentlar Shavkat Rahmon (Garsia Lorca) asarlaridagi an'anaviy, ramziy, majoziy va metaforik timsollar orqali ochib berilgan;

she'riyatda millat aqliy va ruhiy rivojini badiiy vositalar ta'sirida targ'ib qilish, jamiyatda ijtimoiy ongni yuksaltirishga qaratilgan ma'rifatchilik (Abdulla Avloniy), shaxsiy va ijtimoiy erkinlik, tanlov va ichki tafakkur ramziylik orqali ifoda etishga qaratilgan umumbashariy g'oyalar (Cho'lpon), erkinlik tafakkuri asosida milliy ruh va talqinga boy, umidbaxsh va zamonaviy ma'no qatlamlaridan iborat poetik til (Mirtemir), milliy uyg'onish, millat sha'ni va qadri, mustaqillik ruhi bilan yo'g'rilgan yangi dunyoqarash asosidagi falsafiylik (Erkin Vohidov), vatan taqdiri, millat qismati, erkin istiqbol uchun mas'ul milliy qahramon (Abdulla Oripov, Halima Xudoybediyeva), millat ozodligi uchun kurashni hayotiy e'tiqod darajasiga ko'tara olgan, isyon tabiatli, jamiyat dunyoqarashiga kuchli ta'sir ko'rsata oluvchi, milliy o'zlik timsoliga aylangan estetik ideal (Shavkat Rahmon) ifodasida milliy she'riyatning ta'sirlanuvchi darajadan ta'sirlantiruvchi maqomga ko'tarilgani asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Jahon adabiyotshunosligidagi milliy o'zlik tuyg'usining badiiy talqiniga oid adabiyotlarga tayangan holda XX asr o'zbek she'riyatiga xos xususiyatlar aniqlangan;

Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Avloniy kabi jadid shoirlari asarlaridagi milliy o'zlik tuyg'usining poetik talqini milliy xarakter, kurashchan ruhni ifodalovchi obrazlar asosida dalillangan;

G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Maqsud Shayxzoda she'riyatida milliy o'zlikni anglash tuyg'usining badiiy-estetik asoslari davr va jamiyat kesimida aniqlangan;

Mirtemir, Shukrullo ijodida ramziy-majoziy timsollar vositasida ifodalangan milliy o'ziga xoslik masalalari ilk bor tahlil etilib, ulardagi milliy ifoda asosiga yashiringan istiqloq g'oyalari ochib berilgan;

E.Vohidov, A.Oripov, O.Matjon, R.Parfi she'riyatida mahalliy kolorit, tarixiy-falsafiy tamoyillar, isyonkor ruh milliy g'oya va poetik timsollar orqali isbotlangan;

Evrilishlar jarayonida erkin dunyoqarash, ozod tafakkur, diniy-ma'rifiy ruhning, yangi isyonkor she'riyatning maydonga chiqishi E.Vohidov, A.Oripov,

O.Matjon, U.Azim, X.Davron, Sh.Rahmon, A.O'ktamning she'riy asarlari misolida ko'rsatilgan;

Ayollar she'riyatida istiqloq ruhining badiiy in'ikosi Zulfiya, S.Zunnunova, O.Hojiyeva, H.Xudoyberdiyeva, E.Siddiqova she'rlaridagi o'ziga xoslik milliy obrazlar orqali asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilganligi, nazariy ma'lumotlarning mavjud ilmiy manbaalardan olingani, tadqiqot davomida amalga oshirilgan tahlillar natijasida qo'lga kiritilgan, shuningdek, umume'tirof etilgan ilmiy konsepsiyalar va yondashuvlarga asoslangan nazariy hamda amaliy materiallarning katta hajmi ko'rib chiqilgani, xulosa, taklif va tavsiyalarning fundamental-innovatsion hamda amaliy loyihalarda joriy qilingani, olingan natijalarning vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati XX asr o'zbek she'riyatidagi milliy o'zlik ruhining poetik tadqiqi, mustabid tuzum davridagi o'zbek she'riyatining bir asrlik tarixiy makon doirasida tahlil etilgani, uning adiblar ijodiga ta'siri, o'zbek she'riyatining yuz yillik tarixidagi rivojlanish bosqichlari, bu she'riyatning milliy o'zlik asosida milliy istiqloq tafakkurini uyg'otishdagi o'rni va ahamiyati yuzasidan mavjud ma'lumotlarni boyitishga xizmat qilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati milliy she'riyatdagi istiqloq ruhi, uning badiiy-estetik o'rni, shoirlarning poetik mahorati bo'yicha tadqiqotlarni amalga oshirish, oliy o'quv yurtlarida "Adabiyotshunoslik nazariyasi", "O'zbek adabiyoti tarixi va yangi o'zbek adabiyoti", "Mumtoz poetik tahlil" fanlarini o'qitishda, magistr hamda bakalavrlar uchun maxsus kurslarni ishlab chiqish va tashkil etishda, dissertatsiya va monografiyalarni tayyorlashda, darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. XX asr o'zbek she'riyatida milliy o'zlikning poetik talqini bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

jadid adabiyotiga izdosh g'oyalar (milliy uyg'onish, erk, taraqqiyot, o'zlikni anglash va hurriyat) orqali ijtimoiy lirikaning jamiyat tafakkurini o'zgartiruvchi adabiy-estetik kuch sifatidagi ma'naviy qimmat, badiiy uslubi, jamiyat va inson hayotida muhim sanalgan madaniy qadriyatlardan iborat g'oyaviy-estetik xususiyatlarini tashkil etuvchi poetik asoslari dalillanganiga oid ilmiy xulosalardan Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Milliy akademiyaning Chingiz Aytmatov nomidagi Til va adabiyot institutining 2024 – 2025-yillardagi "Aytmatov va yangi O'zbekiston" fundamental tadqiqot loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Milliy akademiyaning Chingiz Aytmatov nomidagi Til va adabiyot institutining 2025-yil 21-iyuldagi 68/01-7-son ma'lumotnomasi). Natijada, milliy o'zlikni anglash jarayonlarida yuzaga kelgan yangicha tafakkur shakllanishi, istiqloq ruhi tasvirida jahon adabiyoti namoyandalarining ta'siri bilan bog'liq ma'lumotlar tadqiqotning ilmiy salohiyati oshishiga xizmat qilgan;

jadid adabiyoti (Abdulhamid Cho'lpon, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy)da aks etgan milliy she'riyat taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatgan erksevarlik ruhidagi

jasorat, milliy hamjihatlik kabi qadriyatlarining lirik qahramon xarakteridagi ifodasiga ko‘ra, jamiyat va millat madaniyatida yangi progressiv ma‘no va tushunchalar, simvol va obrazlar, ramz hamda an‘analar tizimidan iborat madaniy kodlar strukturasi shakl va mazmun mutanosibligi badiiy eksperimental asosda aniqlanganiga doir ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2017–2020-yillarda amalga oshirilgan FA-F-1-005 raqamli “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq qilish” mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2025-yil 9-iyuldagi 393/2-son ma‘lumotnomasi). Natijada, amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda milliy o‘zlik g‘oyasini aks ettirgan adabiy-badiiy asarlarning milliy o‘zlik konsepsiyasi asosida til, tarixiy o‘tmish birligi, umumiy ma‘naviy ildizlar, etnik stereotiplar, ramzlar jihatidan tahlilini ta‘minlashga erishilgan;

she‘riyatda milliy o‘zlik ruhini ifoda etishda barmoq va sarbast vaznining milliy she‘riyat an‘naviy ritmi va uslubiga badiiy yangilik, zamonaviy mazmun va g‘oya, badiiy shakl elementlarini qo‘shish orqali tarkiban yangilangan janrlar transformatsiyasiga ko‘ra, erkin tafakkur va tanqidiy pozitsiyani ifoda etuvchi badiiy hodisa bo‘lgan “murosasiz motivlar”ning asar strukturasi singdirilishi isbotlangani haqidagi xulosalardan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining yillik rejasidagi “Adabiyot yashasa – millat yashaydi”, “Adabiy do‘stlik – abadiy do‘stlik”, “Turkiston jadid adabiyoti va istiqlol tafakkuri”, “Milliy she‘riyat – milliy o‘zlik – milliy taraqqiyot” mavzusida o‘tkazilgan xalqaro va mahalliy tadbirlarning dasturini tuzish, jahon she‘riyati namunalarining tarjimalarini chop etish hamda adabiy-estetik tahlil jarayonlarida foydalanilgan (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2025-yil 11-iyuldagi 01-03/292-son dalolatnomasi). Natijada, milliy o‘zlik tuyg‘usining xalqlar taqdiri va taraqqiyotidagi o‘rni, uning badiiy adabiyotda aks etishi bo‘yicha o‘tkazilayotgan xalqaro adabiy anjumanlar, adabiy tadbirlar samaradorligini oshirish, adabiy hamkorlikni kuchaytirishga erishilgan;

XX asr jahon she‘riyatiga xos shaxs erkinligi, ichki dunyosi, qaror va iztiroblari bilan bog‘liq ekzistensiallik E.Vohidov (Gyote, Rasul Hamzatov, Nazrul Islom), qahramonlarning ruhiy kechinmalari va psixologik holatlarini poetik vositalar orqali chuqur ochib berishga qaratilgan badiiy psixologizm Abdulla Oripov (Dante), badiiy obrazlarga ramziy, metaforik, falsafiy, ijtimoiy, psixologik mazmun bag‘ishlovchi simvolizm Rauf Parfi (Robindranat Thakur) va an‘naviy shakl, tuzilma, badiiy qoidalar asosida yangi kompozitsion, ritmik, stilistik, janriy yechimlar ifodasi aks etgan formal eksperimentlar Shavkat Rahmon (Garsia Lorca) asarlaridagi an‘naviy, ramziy, majoziy va metaforik timsollar orqali ochib berilgani xususidagi nazariy mulohazalardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 – 2025-yillarda amalga oshirilgan “Bobur ensiklopediyasi”ning o‘zbek, ingliz va rus tillaridagi nashrlarini tayyorlash” mavzusidagi amaliy loyihasida hamda “O‘zbekiston Milliy

teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston” radiokanali, “Madaniyat va ma’rifat” telekanali va O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi o‘rtasida “Uyg‘onish ma’rifati”, “Adabiy jarayon”, “XX asr o‘zbek she’riyati”, “Milliy o‘zlik va badiiy ijod” kabi yangi loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha adabiy hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan qo‘shma qarorni tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2025-yil 18-iyundagi 05-09-956-son ma’lumotnomasi). Natijada, mazkur radio va telekanallar mazmun-mohiyati konseptual yangilandi, jamiyat a’zolarining milliy o‘zlik va istiqloq tafakkuri borasidagi dunyoqarashi kengaydi, televideniye xodimlari va tomoshabinlar yangi ma’lumotlarga ega bo‘ldilar;

she’riyatda millat aqliy va ruhiy rivojini badiiy vositalar ta’sirida targ‘ib qilish, jamiyatda ijtimoiy ongni yuksaltirishga qaratilgan ma’rifatchilik (Abdulla Avloniy), shaxsiy va ijtimoiy erkinlik, tanlov va ichki tafakkur mohiyatini simbolik g‘oyalar bilan ifodalashga qaratilgan ramziylik (Cho‘lpon), erkinlik tafakkuri asosida milliy ruh va talqinga boy, umidbaxsh va zamonaviy ma’no qatlamlaridan iborat poetik til (Mirtemir), milliy uyg‘onish, millat sha’ni va qadri, mustaqillik ruhi bilan yo‘g‘rilgan yangi dunyoqarash asosidagi falsafiylik (Erkin Vohidov), vatan taqdiri, millat qismati, erkin istiqbol uchun mas’ul milliy qahramon (Abdulla Oripov, Halima Xudoybediyeva), millat ozodligi uchun kurashni hayotiy e’tiqod darajasiga ko‘tara olgan, isyon tabiatli, jamiyat dunyoqarashiga kuchli ta’sir ko‘rsata oluvchi, milliy o‘zlik timsoliga aylangan estetik ideal (Shavkat Rahmon) ifodasida milliy she’riyatning ta’sirlanuvchi darajadan ta’sirlantiruvchi maqomga ko‘tarilgani asoslanganiga oid xulosalardan 2022–2025-yillar davomida Qozog‘iston o‘zbeklari etnomadaniyat birlashmalari “Do‘stlik” hamjamiyati tomonidan “Milliy Uyg‘onish va Turkiston jadidlar harakati” mavzusidagi ilmiy konferensiyani tashkil etish hamda Qozog‘iston Respublikasida ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan umumta’lim maktablari uchun mo‘ljallangan “O‘zbek adabiyoti” darsligidagi “XX asr o‘zbek adabiyoti namoyandalari” bilan bog‘liq mavzularni takomillashtirishda foydalanilgan (Qozog‘iston o‘zbek etnomadaniyat birlashmalari “Do‘stlik” hamjamiyatining 2025-yil 10-iyundagi 175-son ma’lumotnomasi). Natijada, bu yo‘nalishdagi o‘qitish va ilmiy-amaliy tadbirlar samaradorligini oshirishga erishilgan hamda ko‘rsatilgan mavzudagi darslikning ilmiy-nazariy saviyasi ortgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 10 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 6 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy konferensiyasida ma’ruza ko‘rinishida bayon etilgan va aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 24 ta ilmiy ish nashr qilingan. Shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, jumladan, 8 tasi respublika hamda 3 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda chop qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, ishning umumiy hajmi 274 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, ishning maqsad va vazifalari asoslangan, obykti va predmeti bayon qilingan. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xalqaro ilmiy-tadqiqotlar sharhi, mavzuning o'rganilganlik darajasi, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ochib berilgan, olingan ilmiy va amaliy ahamiyati ko'rsatilib, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, tadqiqotning tuzilishi va hajmi borasida ma'lumot berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Milliy o'zlikni anglashda she'riyatning badiiy-estetik o'rni”** deb nomlanib, muammo uch faslda muhokama etilgan. Birinchi faslda **“Milliy o'zlik tushunchasi va uning badiiy-estetik asoslari”** o'rganilgan.

XX asrda millatlarning o'zligini anglashi va milliy istiqlol tafakkurining shakllanishi yangi bosqichga ko'tarildi. Millatning ma'naviy kamoloti, uning badiiy so'z vositasida o'zligini anglashi, milliy istiqlol tafakkurining shakllanishida, adabiyot, ayniqsa, she'riyat o'ta muhim o'rin tutadi. So'z orqali olamni idrok qilish jarayonida inson milliy o'zlik tuyg'usini his qila boshlaydi. Bu shakllanish jarayoni ham milliy she'riyatning beqiyos ta'sirchanlik qudratiga ega ekanligi bilan xarakterlanadi. “O'zlikni anglash” tushunchasi dunyo adabiyotshunosligida “identiklik” (inglizcha: “identity”) atamasi orqali faol qo'llaniladi. Psixoanalitik E.Eriksonning fikricha, “identiklik – individning boshqalardan ajralib turishi, o'ziga xosligini anglashi bilan bir qatorda va ma'lum ijtimoiy-madaniy guruh bilan o'xshashligi, bir xilligini his qilishi va mazkur ijtimoiy guruhga mansubligi haqidagi tushunchasini anglatadi”¹⁵. Tadqiqotchi I.Maligina milliy o'zlikni *moslashuvchanlik, uyg'unlashuv* kabi guruhlariga ajratib o'rganadi¹⁶. A.L.Kryober “Milliy (etnik) o'zlikni anglash mazmunga ko'ra farq qilish yoki umumiylik haqidagi tuyg'u, o'z guruhi bilan unga kirmaydiganlar o'rtasidagi chegarani his etish”¹⁷, degan fikrni ilgari surgan. Olim milliy o'zlikning asosi sifatida etnik umumiylik tushunchasini oladiki, bu qarash milliy o'zlikni bunyod qilayotgan o'zbek she'riyati uchun tom ma'noda nazariy asos bo'la olmaydi. XX asr 60-yillarida g'arblik tadqiqotchilarning etnomilliy muammolarga e'tibori yana kuchaydi, “etniklik” va “identiklik” atamalari uyg'unlashdi va *etnik identiklik* tushunchasi shakllandi. Bu tushuncha insonning ma'lum bir etnik guruhga mansubligi, uni individual va jamoaviy tarzda namoyon etishidir. Uni namoyon etuvchi belgilar sifatida *etnik markerlar* vujudga kelib, ular *til, madaniyat, mentalitet, an'ana, urf-odatlar*da namoyon bo'ladi. Milliy o'ziga xoslik, milliy ruh ko'p jihatdan millatning azaliy qadriyatlarini, etnik xususiyatlarini va makoni bilan chambarchas bog'liq bo'lsa-da, biroq uning mohiyati millatning o'z-o'zini anglash darajasi va dinamikasi bilan belgilanadi. Binobarin, “Milliy ruh

¹⁵ Эриксон Э. Идентичность: юность и кризис. – М.: Прогресс, 2006. – С. 343.

¹⁶ Малыгина И.В. Этнокультурная идентичность: онтология, морфология, динамика. 24.00.01 – теория и история культуры. Автореф. дисс. на соис... док. философ. наук. – М., 2005. – 23 с.

¹⁷ Кре́бер А.Л. Природа культуры. – М.: Наука, 1950. – С. 74.

millatning ichki ruhiy holati, kechinmalari, his-tuyg'ulari, ma'naviy dunyosi, o'y-fikrlari, maqsad va maslagi hamda kayfiyatini ifodalovchi tushunchadir"¹⁸.

Turkiy yozma adabiyotning kuchayishi natijasida Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Xojib, Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, Rabg'uziy asarlarida diniy motivlar ustun tursa-da, etnik taraqqiyotda til omili muhim o'rin tutadi. Alisher Navoiy davriga kelib milliy o'zlik ifodasi sifatida turkiy tilning adabiy imkoniyatlari yuqori baholangan. Alisher Navoiyning o'z zamondoshlariga qarata aytgan:

Sen o'zingni tonimas ermishsan,
O'z so'zingni tonimas ermishsan)¹⁹, –

so'zlari orqali har bir ziyoli o'zligini anglashi lozimligi, uni anglashda o'z so'zi – millat adabiyoti muhim vosita bo'lishi mumkinligini anglatadi.

Prof. N.Jo'rayevning fikricha, "O'zligini anglagan kishi olamning bor rang-barangligi, hayot mazmuni, tabiatning betakror mo'jizasi... manqurtlik esa o'zligini va olamni unutish ekanligini chuqurroq anglaydi..."²⁰. Ko'rinadiki, til, tarixiy o'tmish birligi, kelib chiqish umumiyliigi, milliy qiziqishlar, etnik stereotiplar va qadriyatlar, ramz, an'ana va urf-odatlarining ifodasi orqali milliy o'zlik ma'naviy hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Germaniyalik olim Ingeborg Baldauf o'zbek milliy o'zligini shakllantirishdagi etnografik muammolar haqida fikr yuritib, jadidlarning millat haqidagi diniy va etnik mazmundagi qarashlarini tahlilga tortgan²¹. Amerikalik jadidshunos Adib Xolid jadidlarning o'zbek milliy o'zligi shakllanishidagi o'rniga e'tibor qaratgan holda Buxoro va Samarqand jadidlarining bu masalada nisbatan faol bo'lishganini ta'kidlaydi²².

Jadid she'riyati o'zi voris bo'lgan mumtoz adabiyotdan andoza va sarchashma olib, yangi ruh va mazmunda kamol topdi. Bu paytga kelib davrning ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy mazmuni inson qalbi va dunyoqarashiga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi she'riyatda namoyon bo'ldi. Chunki ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy ahamiyat kasb etgan she'riyat nafaqat davrning qalbi, balki kurash vositasiga ham aylandi. She'riyat millat vakillariga o'zligini anglatish, qashshoqlik, qoloqlik va jaholat ta'siri va oqibatlarini ko'rsatish, ommani ma'rifatga dadil va oshkora da'vat etishda hayotga chuqur kirib borib kuchli ta'sirlantiruvchi ahamiyat kasb etdi. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida inson erki, qadr-qimmat, millatlar ozodligini kuylagan kurashchan she'riyat kamol topdi.

Jahon badiiy tafakkur olamiga yangi ruh olib kirgan ispan shoiri G.Lorka, rus shoirlari A.Blok, S.Yesenin, A.Axmatova, hind adibi R.Thakur, turk adiblari Y.Kamol, H.Gurpinarli kabi tug'ma iste'dod sohiblarining asarlari tarjima orqali o'zbek milliy ruhiyatiga ham kirib keldi, ularni o'rganish, ta'sirlanish jarayoni milliy o'zlikni anglashda muayyan darajada yordam berdi. She'riyatda milliy

¹⁸ Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. – T.: Ma'naviyat, 2019. – B. 806.

¹⁹ Алишер Навоий. Ҳикматли сўзлар. – Т.: Ўзбекистон, 1985. – Б. 114.

²⁰ Jo'rayev N. Vaqt va fazo. – Toshkent: Ma'naviyat, 2020. – B. 482.

²¹ Ingeborg Baldauf. Some thoughts on the making of the Uzbek nation.// Cahiers du monde russe et soviétique. Vol. 32. №1. Janvier-mars 1991. En Asie Centrale soviétique Ethnies, nations, États. – pp.79–95; Балдауф И. XX аср ўзбек адабиётига чизгилар. – Тошкент: Маънавият, 2001. – 145 б.

²² Adeeb Khalid. Making Uzbekistan: Nation, Empire, Revolution in the early USSR. – Ithaka and London, 2015. – 75 pp.

o'zlik yetakchi bo'lgan motivlar yuksak poetik mezonlar darajasiga ko'tarildi. Shunga qaramay sobiq ittifoq davrida milliy g'urur va iftixor, milliy ma'naviyat va o'zlik tushunchalari cheklandi. Jadid adabiyoti bilan boshlangan milliy o'zlik ruhi ustuvor bo'lgan erk uchun kurash milliy mustaqillik tafakkurini shakllantirish, istiqbolga erishishda o'zbek she'riyatining tarixiy ta'siri va ahamiyatini ko'rsatib berdi.

Birinchi bobning ikkinchi faslida *“Milliy o'zlikning shakllanishida tarixiy tafakkur va badiiy talqin ehtiyoji”* bilan bog'liq masalalar tadqiq qilinadi.

Xalq va millatlar tabiatida zohir bo'lgan milliy o'zlikka xos ko'rinishning namoyon bo'lishi, bosib o'tilgan yo'l, yashagan tuzum, uning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy tamoyillariga bog'liq. Aynan shu ma'noda mazkur tarixiy jarayonlarda turg'unlik, o'sish, kengayish, cheklanish, taraqqiy topish kabi o'zgarishlar ro'y beradi. Ozod Sharafiddinov *“Cho'lponni anglash”* risolasi²³ va *“Kulgan boshqalardir, yig'lagan menman”*²⁴ maqolasida milliy o'zlikni jadid mutafakkirlarining tajribasi keyingi davr adabiyotiga ham asos bo'lishi mumkinligini ko'rsatib berdi. XX asr o'zbek she'riyatida milliy xarakter shakllanishi jarayonida tarixiy tafakkurning badiiy talqiniga kuchli ehtiyoj sezildi. Aynan millat ruhi va xarakteridagi o'zgarish, evrilish jarayonlari o'sha davr adabiyoti va she'riyatida o'z muhrini qoldirdi. Fitrat, Cho'lpon, G'afur G'ulom, Oybek, M.Shayxzoda, Mirtemir, Botu va Elbek kabi shoirlar ijodida turli tasviriy uslublardan keng foydalanildi. A.Cho'lpon *“Oy qo'ynida”* she'ri uchun mungli, romantik tuyg'ularga boy ohangning ichki iztirobi aks etgan shaftoli haqidagi xalq qo'shig'ini epigraf qilib olish orqali millatning hasrat, armon, ruhiy olamini ifodalaydi. N.Karimov²⁵, D.Quronov²⁶, Sh.Hojiyeva²⁷ va boshqa olimlar tadqiqotlarida Cho'lpon she'riyatiga murojaat qilinib, uni yuksak badiiyat namunasi sifatida talqin etilgan. Biroq bu o'rinda shoir mustamlaka asiri bo'lgan Sharq xalqlari o'z millati tushib qolgan ayanchli holatni tabiat fasllariga xos o'zgarishlarga qiyoslagan holda poetik ifoda etadi. Shoir avvaliga *“ko'm-ko'k”* bo'lgan, so'ngra *“sarg'aygan yaproqlar”* timsolida davrga xos ijtimoiy ziddiyatlarni mahorat bilan ochib beradi:

Butun borliq chog'liq uchish oldida,
Sovuq... qora qishga ko'chish oldida...

Cho'lpon *“qora qish”* timsolida millat qalbida uyg'ongan o'zlik ruhiga qarshi yaqinlashib kelayotgan xavfdan ogoh etishga intiladi:

Go'zal Turkiston, senga ne bo'ldi?
Sahar vaqtida gullaring so'ldi.²⁸

Oybek she'riyatiga milliy o'zlik nuqtayi nazaridan yondashilganda lirik qahramonning o'ziga xos poetik obrazi namoyon bo'ladi. Shoirning *“Erkin qush”*

²³ Шарафиддинов О. Чўлпонни англаш. – Т., 1993. – Б. 87.

²⁴ Шарафиддинов О. Кулган бошқалардир, йиғлаган менман / Чўлпон А. Яна олдим созимни. – Т.: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – Б. 5.

²⁵ Каримов Н. Чўлпон. – Т.: “Шарк” НМАК, 1997. – Б. 84.

²⁶ Куронов Д. Чўлпон ҳаёти ва ижодий мероси. – Т.: Ўқитувчи, 1997. – Б. 80.

²⁷ Hojiyeva Sh. Cho'lpon ijodida jahon estetik tafakkurining poetik sintezi. Filologiya fanlari doktori (DSc) diss. avtoreferati. – Т., 2025. – Б. 56.

²⁸ Чўлпон А. Асарлар. 1-жилд. – Т.: Академнашр, 2006. – Б. 72.

she'ri markazida o'zligini sog'ingan, mahzun ruhi qanotlariga mador tilagan lirik qahramon turadi. She'rdagi qush obraziga erk timsoli yanglig' iltijo qilar ekan, uning nag'malari amalining shamini yoqishiga ishonadi. Shoir qalbi bir paytning o'zida ikki timsol: biri o'zligini sog'ingan lirik qahramon, ikkinchisi qafasdan bezgan qush obrazida namoyon bo'ladi, ikkisining ham murodi bir: Erklik istagi! Prof. I.Haqqul ta'kidlaganidek, "Fikr – kurash, fikr imkon. Fikr bildirish O'zlikni tanishdan, Vatan va xalq qismatini haqqoniy idrok etishdan boshlanmog'i kerak. Fikr ziyosi – Erk va Diyonat ziyosi"²⁹. Fitrat, Cho'lpon, G'afur G'ulom, Oybek, M.Shayxzoda, H.Olimjon, Mirtemir kabi shoirlar ijodi milliy ruh, milliy xarakter asosida yangi ma'rifatchilik harakatining xarakterli belgilarini badiiy namoyon etdi.

Birinchi bobning uchinchi faslida ***"Jadid she'riyatida milliy o'zlik tuyg'usi ijtimoiy-ma'rifiy va adabiy-estetik hodisa sifatida"*** tahlil qilinadi. Jadidchilikning ilk davridan boshlab ma'rifatchilik va milliy ozodlik uchun kurash harakatning bosh g'oyasiga aylangan edi. Prof. Fitrat ijodidagi milliy she'rlar, shoirning barmoq vazni rivojiga qo'shgan hissasi, shoir ijodiga xos milliy ruh, vatan qayg'usi, ozodlikka intilish ruhi tadqiq qilinadi³⁰. N.Afoqovanning "O'zbek jadid adabiyotida she'riy shakllar taraqqiyoti tamoyillari", "Jadid she'riyati poetikasi" monografiyasida jadid lirikasiga milliy adabiyotimiz tarixidagi alohida bosqich tariqasida nazar tashlanadi³¹. Tadqiqotchi Sh.Nazarovanning "XX asar boshlari o'zbek she'riyatining yangilanish tamoyillari (yangi o'zbek she'riyati kontekstida)" monografiyasida XX asr boshlari o'zbek she'riyatining yangilanish omillari, davr she'riyatidagi g'oya va mavzu o'zgarishlari, ijodkor o'ziga xosligining shakllanishida obrazlarning o'rni va roli kabi masalalar tadqiq qilingan³². Shu bilan birga masalaga milliy o'zlik nuqtai nazaridan qaralganda o'tgan asrning boshlariga kelib jadid she'riyati mazkur harakat g'oyalarini aks ettiruvchi badiiy hodisa bo'lish bilangina cheklanib qolmadi.

U ishqni, hajr iztiroblari, oshiq qayg'usi, ma'shuq sog'inchi, hijron imtihonlarini emas, Erk va Ozodlikni kuyladi. Bu she'riyat uchun yor, uning visoli ham Hurriyat edi. Shu bois davr she'riyatida yangi mazmuniy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Mazkur she'riyat davrning ijtimoiy-siyosiy-ma'rifiy vositasiga aylandi, real hayotiy mohiyat kasb etdi. She'riyatdagi bunday jangovor ruh jamiyatni uyg'otdi. Avvalda mavjud bo'lgan an'anaviy poetik janr mutlaqo yangi mazmun, shakl, poetik ta'sir qudratiga ega bo'lib bordi. G'azal o'zining ishqiy muhitidan chiqib, yangi ijtimoiy, zarur hollarda siyosiy mazmun kasb etdi. Barmoq vazni asta-sekin ustuvorlik kasb etib, sarbast vaznida ta'sirchan she'rlar yaratila boshladi. She'riyatning maqsadi yuksak badiiy talablar darajasida jozibador she'r yaratish, nazm bo'stonida badiiyat musobaqasiga kirishish emas, uning qudratli vositasi, ta'sir kuchi yordamida millatni uyg'otish, bu yo'lda milliy birlikka erishishi uchun

²⁹ Хаққул И. Ҳаёт, адабиёт ва абадият. – Тошкент: Тафаккур, 2019. – Б. 143.

³⁰ Болтабоев Х. Фитрат ва жадидчилик. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – Б. 71.

³¹ Афокова Н. Жадид шеърияти поэтикаси. – Т.: Фан, 2005. – 120 б.

³² Назарова Ш. XX асар бoshлари ўзбек шеъриятининг янгилашиш тамойиллари. – Т.: Академнашр, 2022. – 256 б.

kurash bo'ldi. Fitratning "O'gut" she'rida millat umidi, ishonchi bo'lgan er-yigitlarga murojaat qilib: *Turma – yugur, tinma – tirish, bukilma – yuksal; hurkma – kirish, qo'rqma – yopish, yo'rilma – qo'zg'al*, deya qahramonini cheksiz irodaviy kurashga yo'laydi. Millat yigitlariga bag'ishlayotgan irodaviy kuch satrdan-satrga ulg'ayib, kuchayib boradi: *Yel yo'lini to'sib turgan eski bulutlarni, Yondirib qo'y, yirtib tashla, barchasin yo'q et. Qilolmasang shu ishlarni, Sening uchun xo'rlikdir bu... Yiqil, yo'qol, ket!* Bu bilan millat erlarining iztirobi, poymol etilgan huquqlari tufayli zaiflashgan milliy nafsoniyati, or-nomusini uyg'otishga intiladi. Prof. B.Qosimovning fikricha, "Yurt qayg'usi" sochmasida "Adibni iztirobga solgan narsa "Ulug' Turon"ning zabun holi. Shoir uning dunyoni "urho"lari bilan titratgan yo'lbars yurakli bolalarini qo'msaydi. Temur sag'anasi poyida turib "ezilgan tani", "qisilgan vijdoni", "kuygan qoni", "o'rtangan joni" uchun davo izlaydi, "Arslonlar arsloni"dan fotiha tilaydi. "Turonning eski sharaf va ulug'ligini qaytarmoq"qa ont ichadi"³³.

Abdulla Avloniy millatga o'zligini anglatish yo'lida erk va ozodlikni har narsadan baland tutarkan, unga olib boradigan birdan-bir yo'l deb ilm-ma'rifatni bildi. Shu sabab Vatani, xalqi uchun zarracha manfaat yetkazishni o'ylagan kishini ma'rifatga da'vat etdi. Shoir Turkistonning ozod va obod bo'lishiga astoydil ishondi. "Hijroni bulbul", "Fig'oni bulbul" kabi she'rlar yaratar ekan, an'anaviy she'riyatdagi mavjud bulbul (oshiq), gul (ma'shuqa) timsollarida yangi ma'nolar berdi:

Kecha-kunduz qafasda, oh gul, deb aylayur faryod,
Omon bermas ango zolim qafas ozor o'lur bulbul.

Shoir bu she'rida *yor, ag'yor, qafas, g'am* so'zlari mohiyatida nafaqat ilm-u ma'rifat, balki erk-u ozodlik motivlarini ham mahorat bilan ifoda etadi. Ishqiy she'rlarga xos obraz va timsollar Avloniy she'riyatida erk uchun kurash timsoliga aylandi.

Dissertatsiyaning "**Istibdod davri o'zbek she'riyatida milliy o'zlikning badiiy in'ikosi va ifoda shakllari**" deb nomlanuvchi ikkinchi bobining birinchi faslida "**O'zbek she'riyatida milliy o'zlik ruhining tadriji**" masalasi tadqiq etiladi.

XX asr she'riyatida milliy ruh barqarorligini ta'minlash, milliy o'zlikni poetik talqin qilishda yuksak ijodiy barkamollikka erishgan shoirlar G'.G'ulom, Oybek, Mirtemir, H.Olimjon, M.Shayxzoda, Shukrullo, E.Vohidov, A.Oripov ijodiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarda ta'kidlanganidek, mafkuraviy bosim va cheklashlarga qaramasdan she'riyatda milliy ruh tadrijiy rivojlanib bordi. U.Hamdovning "XX asr o'zbek she'riyati badiiy tafakkur tadrijining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari"³⁴ tadqiqotida o'zbek she'riyatiga xos badiiy an'analar, ulardagi yetakchi mavzular tahlil qilingan. Shunga qaramay istibdod davri o'zbek she'riyati aslida milliy ozodlik, erk ruhi bilan sug'orilgan, millatga o'zligini anglatish matlabi bilan dunyoga kelgan jadid she'riyati ta'sirida shakllanganini ta'kidlash lozim. G'afur G'ulom, Oybek, M.Shayxzoda, H.Olimjon, Mirtemir kabi

³³ Қосимов Б. Миллий уйғониш. Т.: Маънавият, 2002. – Б. 134.

³⁴ Ҳамдамов У. XX аср ўзбек шеърияти бадий тафаккур тадрижининг ижтимоий-психологик хусусиятлари. Филол. фан. доктори (DSc) дисс. автореф.– Т., 2017. – 70 б.

shoirilar ijodida zamonasoz she'rlar qa'ridagi ramzlar, timsollar, pinxona ifodalar ular qalbida mafkuraviy kishanlarni parchalash ruhi, hurriyat sog'inchi va umidi hamisha mavjud bo'lganligini anglatadi. Sho'ro adabiyoti o'z hukmronligi davrida o'ziga mos tamoyillarni shakllantirdi, ularni ijod jarayoniga tatbiq etdi. Adiblar "ta'qiq chegaralari", "mafkuraviy e'tiroflar" sharoitida adabiy e'tiqodidan qaytmasdan, milliy o'zligidan chekinmay, muqaddas qadriyatlariga ters qaramay, qalbi buyurganini yozish qanchalar qiyin bo'lganini G'afur G'ulom va uning avlodi misolida kuzatish mumkin. Yurt tarixi, millat hayoti, xarakteri va ruhiyatini mukammal bilganligi uchun G'afur G'ulomning asarlari o'ta xalqchil darajaga ko'tarildi. Maqsud Shayxzoda "Shoir tili – xalqning dili..." maqolasida yozishicha, G'afur G'ulom bir umr o'z tili, maslagi, xalqning dili bo'lishi uchun har kuni vijdoniga hisob berib, kulgilari qatiga iztiroblari, xayrixohligi zamiriga isyonlarini yashirib yashadi³⁵. Garchi mustabid tuzum davri, uning qatag'on mashinasi qancha-qancha dillarni o'z domiga tortgan murakkab sharoitda yashagan bo'lsa-da, shoirning ijod yo'li o'zbek xalqining mana shu murakkab davrdagi o'sish, o'zgarish, taraqqiyot va takomil yo'llari bilan uyg'un kechdi. Mafkuraviy shiorlar yangrab turgan bir paytda *Ozod Sharq deb atalur Vatanim O'zbekiston, Quyoshga pardoz quti deyilsa arzigudek*, deyishga kuch topdi. Shoir nihoyatda nozik qochirimlar, yuksak mahorat bilan "Xalqimning ma'rifati, yuksak madaniyati, Jahonda man-man degan xalqlar bilan barobar" degan haqiqatni aytish barobarida o'ziga qalqon qilgan "vositasi" satrlarni ishga soladi. Jumladan, "Yetar may, ruboiy va anekdot" she'rida shunday yozgan:

Real fikr shisha og'zidagi bo'g'iq

Shu mast g'arg'arada chuvolmoqdadir.

Bu jamiyatda aniq fikr shisha og'zidagi kabi qoplanganini aytish orqali shisha og'zi ochilishi bilan qalabda bo'g'ilgan fikr ham mastlik g'arg'arasida chuvalanib chiqayotganiga ishora qiladi: *Zehn okurkaday oyoq ostida... Mast, irganch hayotning qora dastida*.

G'afur G'ulomning poetik mahorati haqida juda ko'p yozilganiga qaramay uning satrlari qa'ridagi milliy o'zlik ruhi bilan bog'liq izlanishlar juda kam kuzatilgan. O.Sharafiddinovning fikricha, "G'afur G'ulom XX asrdagi Sharqning eng o'ziga xos, eng yorqin, eng ko'lamli shoiri edi va hozir ham shunday. Lekin ana shularning bariga qaramay, u tom ma'nodagi fojiona hayot kechirgan. Shu ma'noda u sho'roning erkasi emas, qurboni bo'lgan"³⁶.

Erkin Vohidov mustabid tuzumning ayni ofarinchilik, qarsakbozlik avjiga chiqqan davrida "Qarsak haqidagi she'rga javob" she'rida shunday yozadi: *Men she'r yozsam, O'qisa uni, Tinglaganlar qarsak chalmasa. Biror kimsa biror so'zini Yodida ham saqlab qolmasa / Faqat bittagina bo'z o'g'lon Uyg'a qaytgach, yig'lasa to'lib. Yig'lab-yig'lab tong bo'zargan on Uyg'onsa u Alpomish bo'lib*. Shoir yolg'on g'oyalar ustiga qurilgan mamlakat, har kuni yolg'onlar bilan nafas oladigan jamiyatning qiyofasini chizadi. Ulg'ayib kelayotgan "bo'z o'g'lon"lar Alpomish timsolida qaytadan ko'z ochishiga, ularning ong-u shuurida erksizlikka

³⁵ Гафур Гулом. Асарлар. 1-жилд. – Т.: Бадий адабиёт нашриёти, 1964. – Б. 6.

³⁶ Шарафиддинов О. Танланган асарлар. – Т.: "Шарк" НМАК, 2019. – Б. 6.

nisbatan nafrat, isyon uygʻonishiga ishonadi.

Shoir Abdulla Oripov ijodini yaxlit sheʼriyat xaritasi sifatida olsak, uning ijodi ochiq isyonkorona ruhni yorqin ifodalab bergan “Yuzma-yuz” sheʼri (1964) xaritadagi har qanday toʻgʻonni buzib oʻtish shiddati bilan pishqirib oqayotgan asov daryoga oʻxshaydi. Mazkur sheʼrda shoir istiqbol haqida ichki bir dard, ichki bir sogʻinch bilan yozar ekan, maʼnolar qatma-qatligi mohiyatiga milliy oʻzlik ruhi, milliy istiqbol orzusini singdirishga erishadi. Bu sheʼr milliy oʻzlik va mustabid tuzumning yolgʻon siyosati taʼsiridagi bir vujudning qalb va uygʻoq iymon bilan yuzma-yuz kelishidir:

Yer yuzida kechgan zulmatu vahshat
Chekinar-ku oxir chirib va qarib.
Faqat U istiqbol – ul ezgu niyat
Insonga sofligin berar qaytarib³⁷.

Yuqoridagi satrlarda shoirning milliy dardi, umumijtimoiy dard bilan uygʻunlashib ketadi. Shuning uchun bu shamol erk va millat ozodligi yoʻlida chalingan har qanday sozni oʻz izmiga solishga intiladi, oʻz nogʻorasiga oʻynatishni istaydi. Sheʼr davomidagi “Bilaman, ortimdan kimdir oʻqrayib, Qarab oʻtiribdi xuddi shu zamon” mazmunidagi satrlar yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi.

Ikkinchi bobning ikkinchi faslida **“Oʻzbek sheʼriyatida jadidlarga izdosh gʻoya va motivlarning davomiyligi”** muhokama etiladi. Adabiyotshunos I.Gʻafurovning “Sheʼriyat yonib yashash”, “Maqsud Shayxzoda”, “Erkin Vohidovning hayot va sheʼr dunyosi” kabi tadqiqotlarida oʻzbek sheʼriyatida anʼanaviy ruh kasb etib kelayotgan jadidlarga izdosh gʻoya va motivlar davomiyligini koʻrish mumkin. Akademik N.Karimov “XX asr oʻzbek adabiyoti taraqqiyotining oʻziga xos xususiyatlari va milliy istiqbol mafkurasi”³⁸ tadqiqotida Choʻlpon, Oybek, Hamid Olimjon, Mirtemir, Usmon Nosir ijodini ular hayoti bilan uzviy aloqada oʻrgandi. Yashar Qosimov “Oʻzbek sheʼriyatida poetik yangilanish jarayoni (60-yillar shoirlar avlodi misolida)” tadqiqotlarida XX asr sheʼriyatida davrdan davrga oʻtib kelgan milliy ruh talqini, poetik yangilanishlar, mavjud anʼanalarning yangi badiiy shakllar asosidagi rivoji oʻrganilib, oʻzbek sheʼriyatining gʻoyaviy-estetik va badiiy xususiyatlari tadqiq qilindi³⁹.

Oʻzbek xalqi XIX asrning ikkinchi yarmidan to milliy istiqbolni qoʻlga kiritgunga qadar avval mustamlaka, keyin Shoʻro davridagi sotsialistik jamiyat atalmish “tutqunlikning yangicha davri”, zulm va ijtimoiy adolatsizlik, kamsitish va tahqirlanishlar ichida yashadi. Istiqbol sari hamisha komil ishonch bilan erk, milliy ozodlik uchun turli shakllarda kurash olib bordi. Bunda hamisha milliy adabiyot, milliy sheʼriyat ularga tuganmas ruh, ishonch, umid va kurashchanlik irodasini ato etdi. U maʼrifatchilik va istiqbol gʻoyalari bilan millatni birlashtiruvchi, gʻaflat girdobidan saqlab, oʻzligini anglatib turuvchi, milliy birlikni ifodalovchi bayroqqa aylandi. Oʻzbek adabiyotida koʻtarilgan bu bayroq XX asr

³⁷ Оripов А. Танланган асарлар. – Т.: “Шарқ” НМАК, 2019. – Б. 27.

³⁸ Каримов Н. XX аср ўзбек адабиёти тараққийотининг ўзига хос хусусиятлари ва миллий истиклол мафкураси. – Т.: Фан, 1991. – Б. 47.

³⁹ Яшар Қосим. Янги ўзбек шеърийати жилolari: Янги ўзбек шеърийатининг шаклланиши ва поэтикаси. – Т.: Sahhof, 2025. – Б. 86.

o‘zbek she‘riyatining deyarli barcha rivojlanish bosqichlarida, uyg‘oq shoirlari dilida hilpirab turdi. Prof. U.Normatovning fikricha, “Hech qaysi soha XX asrda adabiyotchalik millat taqdiri, ijtimoiy adolat, inson erki, sha‘ni, himoyasi yo‘lida izchil, muntazam kurash olib borgan emas... XX asr adabiyotning millat badiiy zavqi, go‘zallik tuyg‘usini shakllantirishdagi xizmatlari esa beqiyosdir”⁴⁰. Isyonkorona asarlar yozgan zabardast ijodkorlardan biri M.Shayxzoda “*She‘rsiz qalblarga achinaman men*” deyish bilan o‘sha erksiz, musibatli muhit ichra yorug‘ nurga – ishonchga intiladi. Shoir zamon bilan murosa qilayotday tuyulsa-da, qalban erk nasimlariga, bir umr zabun millatning egilgan qaddini tiklaydigan, unga aslini anglatadigan, kurashib yengilmaydigan, yaratib toliqmaydigan kuchga aylantiruvchi milliy o‘zlik ildizlariga intildi. “Baxshi” she‘ri (1936) davr bilan hamohangdek ko‘rinsa-da, unda shoir yuragining o‘ziga xos “kardiogramma”si ifodalanadi: “*Oshiqning mojarosin kuylaydi, Baxtsizlardan berar g‘amli bir darak*”⁴¹.

E.Vohidovning “Mening yulduzim” she‘rining butun mohiyati, qatiga yashirilgan ma‘nolarini ilg‘ab o‘qigan o‘quvchi “Men insonman” degan satrlar zahirida “Men millatman” degan ichki hayqiriqni tuyadi. E.Vohidovning “So‘ngan yulduzlar” she‘ri poetikasi mazmun va ruh jihatidan avvalgi she‘rning davomiday jaranglaydi. E.Vohidovning “Bo‘ronlar avlodiga” she‘ri (1982)da uyg‘otuvchi poetik ruh yanada kuchayadi. She‘r chuqur milliy o‘zlik ruhi ila sug‘orilgan bo‘lib, kelajak avlodga murojaat orqali o‘zlikni anglashi talqinida, o‘zlikni anglatish ruhi ustuvorlik qiladi. Shoir bu she‘r bilan “kurashlarni surur deb bilgan, bo‘ronda tug‘ilgan yurt nasli” hech qachon o‘z matlabidan ortga chekinmasligiga, asli “xamirturishi o‘tga qorilgan, alangadan bino bo‘lgan” el hech qachon kurashlardan qo‘rqmasligini ta‘kidlaydi. Shoir A.Oripov she‘riyati erksevarlik ruhi bilan qanot yozdi. Zulm va qo‘rquv, yolg‘on va aldovga asoslangan tuzum “soxta haqiqatlari”, “qonli bayroqlari” bilan qanchalar ustuvorlikka intilmasin u qadr topmadi, aksincha jamiyatda obro‘sizlanib, o‘z qimmatini yo‘qotib bordi. Chunki millatlarni erksizlikka mahkum etgan bu jamiyatdan halokat nafasi ufarardi. Ko‘rinadiki, istibdod davrida mafkura va tazyiq qanchalik qilichini qayramasin, shoirlar qalbidagi milliy o‘zlik tuyg‘usi she‘riyatning ichki oqimi sifatida kuchayib bordi.

Ikkinchi bobning uchinchi faslida “***Tarixiy mavzudagi she‘riyat kontekstida milliy o‘zlik ruhi***” tahlil qilinadi. Har qanday kelajak xotirasi tarixiy xotira asosida vujudga keladi. Milliy dostonlar, folklor namunalari, qahramonlik qissalari avlodlardan avlodlarga o‘tib, har bir millat qalbiga milliy o‘zlik ruhini olib o‘tgan. N.Karimovning “Maqsud Shayxzoda” ma‘rifiy-biografik romani, Xalil Riza o‘g‘lining “Maqsud Shayxzoda she‘riyati va ozarboyjon-o‘zbek adabiy aloqalarining dolzarb muammolari”, T.Xalilovning “Mirtemirning poetik mahorati” dissertatsiyalarida tarixiy mavzular tahlil etilgan⁴².

⁴⁰ Normatov U. XX asr mening taqdirimda // Ja‘hon adabiyoti. – 2001, yanvar. – B. 17.

⁴¹ Shayxzoda M. Asarlar. Oltin tomlik. Birinchi tom. She‘rlar. – Toshkent: Faqur Gulom nomidagi nashriyat, 1969. – B. 173.

⁴² Karimov N. Maqsud Shayxzoda / Ma‘rifiy-biografik roman. – T.: “Sharq” NMAK, 2009. – B. 22–23; Jabborov I. Abdulla Oripov she‘riyatida tarixiy shaxs konseptsiasini va lirik qahramon masalasi. Filol. 22

XX asr she'riyatida jadidlardan to istiqlolgacha bo'lgan poetik ko'lamda milliy o'zlik va tarixiylik jarangi asrlarga tatigulik "uyg'onish qo'ng'irog'i" vazifasini o'tadi. Bu davr she'riyatida milliy qahramonlar, qadriyatlar, tarixiy voqealar, til va madaniyat, ilmiy-ma'naviy-madaniy meros yangi talqinlar va poetik buyoqlarda, jo'shqin tuyg'u va qalb tug'yonlari bilan tadrijiylik asosida rivojlanib bordi. Shoir millat dunyoqarashini o'zgartirish, milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'ularini uyg'otishda tarixiy haqiqatlar ta'siri qanchalar muhim ahamiyat kasb etishini yaxshi anglagan. Shu bois she'rda tarixiy xotira bosh o'zak – anglatish darajasiga ko'tariladi.

M.Shayxzodaning "Toshkentnoma" dostoni shoir shaxsiyatining o'ziga xos mo'tabar ko'zguvidir. Shoir "mehr qo'rg'oni", "Najot va hayot, ijod qal'asi" bo'lgan Toshkentni tirik satrlar bilan erk tilagi hamisha qullikka qarshi isyon sifatida mavjud ekanini ta'kidlab, o'quvchini erk uchun kurashga chorlaydi:

Esimda Anhorning yog'och ko'prigi,
Bu yerni azaldan deyishgan O'rda.
Jismi yo'q, ismi bor. Beklarning arki,
Nom qolgan, ammo nom egasi murda.

M.Shayxzoda xalq dardini doston qilar ekan, dag'dag'a bilan lashkar tortib kelgan bosqinchilar va ularning zulmidan begunoh qatl etilgan insonlar taqdirini bitadi. Shu asnoda tilidan, elidan voz kechishga mahkum etilgan botirlar yurtini uyg'otadi. Elning o'zlik ildizlarini qo'porib, manqurtlashtirishni niyat qilgan chor bosqinchilari, mustabid tuzum kor chalonlari qilmishlarini fosh etadi.

H.Olimjonning "Muqanna" she'riy dramasi millat erki va ozodligi borasida yongan qalbi va ruhiyati aks etgan. Shoir og'riqli savolni o'rta tashlaydi: *Ammo hech kim shodu xurram emas-ku!* Nega, nima uchun, odamlar ruhi so'ngan?! *"Biz qul edik, hozir butun o'lka qul"*. *"Qilich tutgan har bir jonni quritgan"*. Vayronkor fotihlar shaxsiyatiga yuklangan bosqinchilik va qonxo'rlik mohiyatan ko'z oldimizda davlatchilik timsoli bo'lgan oliy saroylarni ko'lini ko'kka sovurgan, Erk yo'lida kurashgan qancha jonlar o'limiga sabab bo'lgan bosqinchi gavdalanadi. Shoir qalbidan shiddatli olov yanglig' lovullab chiqayotgan tug'yonli so'zlar "Erk favvorasi" yanglig' borliqqa taraladi. Soxta haqiqatlaru soxta da'vatlardan dimiqqan, bo'g'riqqan yurak bir nafas ozodlik totini, ruhini his qiladi. Shoirning Muqanna tilidan aytgan so'zlaridan isyon va kurash nafasi keladi: "O'z elimdan qochib saqlayinmi jon, Vatanimdan azizmi bir qoshiq qon?!", "G'amga botgan elim yig'lab qolsinmi, Qayoqqa, deb tog'lar faryod solsinmi?", "Qullik bilan turolmayman bir yerda, Dushman bilan yotolmayman bir go'rda", "Muhrlangan til bilan yashamayman".

Shoir Mirtemirning she'r va sochmalari xalqchilligi, milliy o'zlik tuyg'usining go'zal badiiy talqini, falsafiy-tarixiy, badiiy-lisoniy quvvatining

фанл. ном. ...дисс. автореф. – Т., 2008. – 24 б.; Панаева Ў. Ҳозирги ўзбек шеъриятида тарихийлик концепцияси. Филол. фанл. ном. ...дисс. – Т., 2005. – 140 б.; Халил Рза оглы. Поэзия Максуда Шейхзаде и актуальные проблемы азербайджанско-узбекских литературных связей. Автореф. дисс. на соис. ... док-ра. филол. наук. – Баку, 1985. – 57 с.; Халилов Т. Миртемирнинг поэтик маҳорати. Филол. фанл. номз. ... дисс. – Т., 1975. – 195 б.; Қодиров К. Традиции фольклора в поэзии М.Шейхзаде. – Т., 1973. – 148 б.; Каримов Н. Ҳамид Олимжон поэтик маҳоратининг баъзи масалалари. Филол. фанл. номз. ... дисс. – Т., 1962. – 197 б.

sobitligi bilan xarakterlanadi. “Mirtemirning sochmalaridagi alangali “na’ralar” kurash chaqiriqlaridir. Ularda kurashning o‘zi dramatik manzaralari bilan aks etadi”⁴³. “Boq” sarlavhali erkin qofiyali she’rida shoirning fikri qalb nidosi kabi jaranglaydi:

Boq! Sharqning bulutlar bosgan ufqida o‘tlar yonadi...

Yovuzlar bulg‘agan majruh ko‘ksiga shu’la yog‘adi...⁴⁴

Jaholat va ma’rifat, diyonat va xiyonatning kurashi hech kimni befarq qoldirmaydi: *Yillarning jabrini tortgan bandalar turgan o‘xshaydi... Isyonsiz zanjirlar uzilmasligin bilgan o‘xshaydi...* Jabrga qarshi isyon fikrni oqim kabi harakat qilishga o‘rgatdi. So‘z tafakkurni, tafakkur so‘zni yuksak saviyali, baland darajali ehtiros cho‘qqisiga olib chiqdi. Shoirni isyonga oyoqlantirayotgan hayotiy muammolarni bir o‘zanga sig‘dirish mumkin emas:

Ufqda porlagan alanga-o‘tlar kuchlanar, so‘nmas!

O‘lim yomg‘irini sepgan bulutlar tarqalar, turmas!

E.Vohidov ijodida tarixiy voqelik, shaxslar talqini bilan bog‘liq she’rlar o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Uning “Samarqand kechasi” she’rida “Samarqand” nomi uch ming yillik milliy davlatchilik, ulug‘ madaniyat, buyuk tarix, nomlari insoniyat solnomalariga bitilgan: *Munajjim tasbehidan to‘kilgan donalardek, Osmon o‘zra sochilib yarqiraydi yulduzlar*⁴⁵. Shoir uchun “Samarqand kechasi” o‘ziga xos qorong‘u lavh, shoir millatga o‘zligini anglatish uchun dastlab, unga qo‘lidagi tasbeh donlari to‘kilib bu lavh uzra osmon uzra yaraqlab turgan yulduzlar rasmini chizadi. Aynan shu tasvir mohiyatidan “Ulug‘vor Samarqand” ruhi chiqib keladi. Kecha sukunatiga quloq solgan, yuzida tabassum izi porlab turgan Oy nogahon chaqaloq yig‘isini eshitarkan, “Yana bir Ulug‘bek tug‘ildi”, deb sevinadi. Bir tomondan, ulug‘ olim va davlat arbobi Mirzo Ulug‘bekka ishora, ikkinchi tomondan, “Ulug‘” “Bek”ka ishora qilayotganday bo‘ladi.

XX asr tarixiy mavzular she’riyati fonida milliy o‘zlik ruhi ifodalanishini tadqiq qilish, she’riyat va hayot takomili borasidagi tadqiqotlar mundarijasini boyitdi. Bu davr she’riyatidagi g‘oya va motivlar Erk orzusi bilan yashab, milliy istiqloлга erishgan millat tabiatidagi inqilobiy ruh kamolotini ko‘rsatishga xizmat qildi.

Dissertatsiyaning “**Eruvchanlik davri poetik tafakkurida milliy o‘zlikni anglash ruhining aks etishi**” nomli uchinchi bobi birinchi faslida “*Milliy o‘zlik ruhi tasvirida yangicha talqin va obrazlar tizimi*” tadqiq qilinadi. XX asr milliy she’riyatimizda o‘z aksini topgan milliy o‘zlik ruhidagi yangicha talqin she’riyatning poetik imkoniyatlarini kengaytirdi. Bu davr she’riyatida g‘oyaviylikning kuchayishi aksar hollarda badiiylikka soya soldi, natijada milliy o‘zlik ruhidan ko‘ra, sho‘ro davlati, uning yutuqlarini aks ettiruvchi “umumbunyodkor ruh”, “sovet tushmushi tarzi talqini” ustuvorlik qildi. Turli bosim va ta’qiqlarga qaramay, G‘afur G‘ulom, Maqsud Shayxzoda, Mirtemir, Shukrullo kabi shoirlar ijodi o‘ziga xos yangicha talqin va obrazlar, poetik

⁴³ Гафуров И. Асарлар. 1-жилд. – Т.: Янги аср авлоди, 2022. – Б. 184.

⁴⁴ Ўша асар. 1-жилд. – Т.: Янги аср авлоди, 2022. – Б. 15.

⁴⁵ Воҳидов Э. Танланган асарлар. – Т.: “Шарк” НМАК, 2016. – Б. 29.

topilmalar, ramziy-ishoraviy tashbehlari bilan o'zbek she'riyatida yetakchi darajaga ko'tarildi. "Sovetlarga xos ruh" har bir yaratilayotgan she'ning "sun'iy yuragi"ga aylandi. Mafkuraviy mezonlar "millat", "milliy uyg'onish", "milliy taraqqiyot", "o'zlikni anglash", "hurriyat", "erk", "ona yurt", "muqaddas o'lka" kabi so'zlarni qalblardan siqib chiqarishga intildi. Q.Yo'ldoshev maqolalari⁴⁶, Yashar Qosimning "Ramziy-metaforik tafakkur va obrazlar dinamikasi"⁴⁷ tadqiqotida o'zbek she'riyatidagi yangicha ramziy obrazlar zamiridagi ma'no qatlamlari ochib beriladi.

XX asr 50-yillarining ikkinchi yarmida sobiq ittifoq hududida shaxsga sig'inish oqibatlarini tugatish borasida boshlangan harakat adabiy jarayonlarga ta'sirini ko'rsatdi. Hayot va jamiyatda ro'y bergan o'zgarish, adabiyotda o'z aksini topdi. "Eruvchanlik davri"da ijodkorlar oz bo'lsa-da, erkin nafas ola boshladi. Shoir Shukrullo "Davr tug'dirgan eng og'ir fojia shunda ediki, kishilar ko'rgan-bilganini ro'y-rost yozishdan, nainki yozishdan, xayolan muhokama qilishdan mahrum bo'lib qolishgan edi"⁴⁸, deb yozadi. Badiiy adabiyotda obraz she'rga yuklangan ijtimoiy vazifaning poetik ruhini ochib beradi. Badiiy obraz she'rga ko'chib o'tgan shoir qalbining bir bo'laki, aynan she'rga yuklangan mohiyat ana shu qalb parchasida mujassam bo'ladi. Shu bois, badiiy ruh va g'oya ana shu obraz orqali ta'sirchan yuksaklikka ko'tariladi. Obrazning o'ziga xos vazifasi shundaki, u o'z bag'rida yuksak poetik timsolni tutib turadi.

O'tgan asrning 60-yillaridan boshlab sobiq ittifoqning ko'p millatli adabiyotida tom ma'noda millatlarning o'zligini anglash jarayoni qaytadan alanga oldi. "Na'matak" (Oybek), "Majnuntol" (Mirtemir), "Devonai haqgo'y" (E.Vohidov), "Tilla baliqcha" (A.Oripov), "Ichon qal'a" (O.Matjon), "Adashgan ruh" (R.Parfi) kabi obrazlar o'z ta'sir kuchi, jozibasini bilan o'quvchilar qalbidan joy oldi. Bu obrazlar ham she'riy mohiyatda, ham she'riy taassurotda yangi ma'nolarni so'zlad.

Erkin Vohidov milliy o'zlik ifodasida shaxs erkigina emas, balki "Jahoniy Erk" degan g'oyani olib chiqadi. "Quyosh maskani" dostonida milliy o'zlik, milliy istiqloq sog'inchi bilan bog'liq "asl mohiyat", o'zlik ruhi she'rdan she'rga kuchayib boradi. Shoir "Tirik sayyoralar" she'rida derazadan tushgan tola nurda Somon yo'li tovlanishlarini ilg'aydi. She'rdan samoga boqib, o'zga sayyoralardagi tafakkur egalarini izlayotganlarga yuzlanib, "sen avvalo zaminga qara, zaminga boq" deya bejiz sirli shivirlamaydi. Zero, SSSR – "xalqlar turmasi" deya ta'riflangan zo'rlik va erksizlik asosiga qurilgan poyonsiz saltanatda o'z sayyorasi-o'zlik ruhi bilan yashayotgan xalqlar, millatlar, insonlar borligini ta'kidlaydi. Bular Tirik sayyoralar, chunki ularning qalbida erk va ozodlik umidi kamolga yetmoqda. "Sharqiy qirg'oq" she'ri mohiyat-e'tibori bilan botiniy dard, ezgu fikrni yuksak badiiyat darajasida ifodalagan poetik namunadir. Shoir murakkab va qaltis zamon haqida "Bizga dushman edi hiyla va hadik, Yo'q edi mardlikdan o'zga himoyat", deb yozadi. Milliy she'riyatda mavzu va qahramon tanlash mahorati o'sdi, poetik

⁴⁶ Йўлдош Қ. Сўз ёлқини. – Т.: Ғафур Ғулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. – Б. 58, 112, 264.

⁴⁷ Қосимов Я. Янги ўзбек шеърини жилолалари. – Т.: Саҳҳоф, 2025. – Б. 220.

⁴⁸ Шукрулло. Қасосли дунё. – Т.: Ўзбекистон, 1994. – Б. 86.

ko‘lamda ijobiy va salbiy jihatlar ifodasining obrazlardagi yangicha talqinlari yuzaga keldi. Mualliflarning milliy o‘zlik nuqtai nazari qat’iylashdi. Bu esa she’riyatda syujet va kompozitsiya mutanosibliги kuchayishiga keskin ta’sir ko‘rsatdi.

Uchinchi bobning ikkinchi faslida *“Istiqlol ruhi tasvirida jahon adabiyoti namoyandalari ijodining ta’siri”* masalasi tahlil qilinadi.

XX asr millatlarning o‘zligini anglashi va yer sharining turli hududlarida mustamlakachilik tizimining barbod bo‘lishi oqibatida xalqlarning milliy o‘zligini anglashi tom ma’noda yangi bosqichga ko‘tarilgani bilan insoniyat tarixida qoladi. Milliy istiqlol uchun kurashda hamma davrlarda she’riyatning o‘rni beqiyosdir. O‘zbek she’riyatining jangovor maqomi, she’riy asarlardagi istiqlol ruhi tasvirida jahon she’riyatining ta’siri ham muhim ahamiyat kasb etdi. Zero, she’riyat hamishga ozod ruh, erkin tafakkur, inson himoyasi, bashariyat baxti uchun kurashdagi jangovor so‘zi bilan sharaf topgan.

Adabiy hodisalar tahlili jarayonida XX asr o‘zbek adabiyotida shakllanib, rivojlanib borgan, alaloqibat xalqni istiqlolga chorlagan, bu buyuk baxtni qo‘lga kiritishda eng muhim yalovbardorlardan bo‘lgan milliy she’riyatimizni kurashchan to‘lqinga aylantirgan istiqlol ruhi tasvirida P.Neruda, R.Thakur, G.Lorka, N.Hikmat, A.Blok, S.Yesenin, N.Islom, R.Hamzatov, I.Ziyedonis, E.Mejelaytis, Q.Quliyev, M.Karim, D.Qo‘g‘iltinov kabi jahonga tanilgan ijodkorlar ta’sirini o‘rganish dolzarb ahamiyatga egadir. Buning vositasida milliy she’riyatimizning rivojlanish dinamikasini tushunish, an’analar takomili, *ta’sirlantirish va ta’sirlanish* jarayonlarida eng yuksak badiiy qadriyatlarni anglash imkonini beradi.

Bir asr davomida milliy she’riyat sharoit va imkoniyat yaralishi bilan so‘z nufuzini tiklashga urindi. Adabiyotshunos I.G‘afurov: “So‘z, hissiyot, fikr uyg‘otishdan tashqari, eng muhimi, inson himoyasiga safarbar etilgandagina umumbashariy mohiyat kasb etadi”⁴⁹. Inson, millat himoyasisiz adabiyot, uning eng ta’sirchan vositasi bo‘lgan she’r o‘z qimmatini, ijtimoiy hayotdagi o‘rnini yo‘qotadi. Inson himoyasi esa unga milliy o‘zligini, ozod yashash huquqini anglatishdan boshlanadi. O‘zbek she’riyatidagi ozodlik motivlari, timsollar, she’riy tafakkur rivojlanishida jahon she’riyatining o‘ziga xos ta’siri kuzatiladi. Jahon va Sharq adabiyotidagi individual ijodkorlarning o‘ziga xosligi shaxsiy ulushi va kashfiyoti bilan boyitilgan ijodiy talqin spetsifikasi, adabiy ijod modifikatsiyasi ta’siri kengayishiga sabab bo‘ldi. Mustamlakachilik zulmi ostida ezilgan millatlarning “Kurash” bayroqlariga “ozodlik” so‘zi ko‘proq millatga o‘zligini anglatgan erktalab shoirlar tomonidan yozildi. Rasul Hamzatovning “Dog‘istonim” kitobi sobiq ittifoq adabiy muhitida favqulodda bir jasorat timsoli sifatida paydo bo‘ldi: “Tog‘liklar, ko‘pincha, o‘g‘liga bobosining ismini qo‘yadi. Kitobim – mening farzandim. Men esa Dog‘istonning farzandiman. Demak, kitobimning nomi – “Dog‘iston”... Mening kitobim – mening davlatim. Uning nomi esa bayrog‘i”⁵⁰. E.Vohidovning “O‘zbekim” qasidasi yaralishida R.Hamzatovning “Dog‘istonim”dagi milliy o‘zlikni anglash ruhi o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Erkin

⁴⁹ Гафуров И. Олтин қозіқ . – Т.: “Шарқ” НМАК, 2018. – Б. 152.

⁵⁰ Воҳидов Э. Асарлар. 2-жилд: Ҳамзатов Р. Доғистоним. – Т.: “Шарқ” НМАК, 2015. – Б. 348.

Vohidov Rasul Hamzatov ko'ngil og'riqlari asnosida o'zbek millatining buyuk dardi bilan yondi, "O'zbekim" deya hayqirdi. Agar R.Hamzatov "Dog'istonim" deya umumiy hudud – Vatan tushunchasi bilan ish ko'rgan bo'lsa, E.Vohidov uni "O'zbekim" deb millat ruhi ifodasiga aylantirdi. Qasidada o'tmishning tilga olingan har bir voqeasi ramziy ma'no kasb etadi. Milliy g'urur bilan armon, tuyg'ular silsilasi, tarixiy davr, ijtimoiy-siyosiy tafakkur taraqqiyoti, hissiyot har satrda uyg'unlashadi, asrlar qa'rini yoritadi. Istibdod butunlay zabt etgan, tushovlangan erkinlikning ingroq tovushi shoirga tinchlik bermaydi:

Davr zulmiga va lekin
Bir umr bosh egmading,
Sen – Muqanna, sarbador – sen,
Erksevar qon, o'zbekim.

A.Oripovning "O'zbekiston" she'ri "O'zbekim"ning otashin ruhi uyg'otgan yuraklardagi milliy vatanparvarlikni "O'zbekiston – Vatanim manim" degan o'tli sado bilan yanada alangalatdi: *Bir o'lka bor dunyoda, biroq Bitilmagan dostondir bori...* Shoirga "olam aro tanho", qiyosi yo'q yurtning "bitilmagan doston"lari, ya'ni "olis tarix"i tinchlik bermaydi. Shoirning Amir Temur haqidagi ...*Zabtga olib keng Osiyoni, Bir zot chiqdi mag'rur, davongir* kabi qarashlari "zamon muharrirlari" tomonidan "*Demam, bu kun, u manim, manim*" shaklida keskin "tahrir" qilindi. Sohibqironga xos "buyuk" so'zi "oqsoq"qa aylantirildi. Ichki iftixor va tasdiq ruhidagi satrlar, o'zlikdan tonish, orlanish, keskin inkor ruhida talqin qilindi. Bu bilan mustabid tuzum mafkurasi shoirning ona Vataniga muhabbat, milliy o'zlik ruhida bitgan asaridagi "ichki men"ni begonaga aylantirdi. Bu tuzumning millatlarning o'zligidan begonalashtirish siyosatining sharmandali namoyishi bo'ldi. Sobiq sho'ro davrida o'zbek adabiyoti aksariyat hollarda *ta'sirlanuvchi* adabiyot sifatida ko'rsatildi, u rus adabiyotining *ta'sir doirasidagi shakllanuvchi va rivojlanuvchi adabiyot* mavqeyida qolgandek tasavvur uyg'otdi. E.Vohidov va A.Oripovning kirib kelishi bilan o'zbek adabiyoti *ta'sirlanuvchi* adabiyotdan *ta'sir ko'rsatuvchi* adabiyot darajasiga ko'tarildi.

Mirtemirning "Ona tilim" she'ri tarixiy ruhi, milliy timsollar, ramziy-majoziy ifodalarga boyligi bilan ajralib turadi. She'riyatda hali hech kim "Ona tili" degan muqaddas tushuncha mohiyatini millat tabiati, ruhi, u yashab kelgan borliq va voqelik uyg'unligida bu qadar mahorat bilan talqin qilolmagan. She'rdagi ramziy ifodalar, bir tomondan, unga ona tili kabi qadimiy ruh bag'ishlasa, ikkinchi tomondan, uning xalqchilligini oshirgan. Bu poetik jarayonning davomi sifatida A.Oripovning "Ona tilimga" she'ri isyonkor, millat ruhiyati va ongu shuuriga ta'sir qiladigan, mudroq qalbni uyg'otadigan tagdor ma'nolari bilan milliy til vositasida xalq qudratini ko'rsatishga qaratildi. Rauf Parfining "Ona tilim" (1965) she'rida shoir qalbidagi eng muqaddas his-tuyg'ular "Ulug' Alisherning qutlug' tilinda" so'z aytish mas'uliyati bilan ogohlantiradi. Rauf Parfi ona tilini "Turkiy Dunyoning g'olib xayoli" – hech qachon yengilmas kuchga qiyoslaydi

...Zanjirbandman, ona tilim, Ona So'zingga,
Kundayin so'larman, oydek to'larman,
Mil kabi tortarman Seni ko'zimga.

E.Vohidov ulug' olmon shoiri I.V.Gyotening "Faust" asarini tarjima qilib chop ettirar ekan, unga yozgan so'zboshisida bu asarni "Barcha haqiqatlarning onasi bo'lgan Inson qalbi Ozodligining tarannumi" sifatida baholaydi⁵¹. Erkin Vohidovni Gyote oltmish yil davomida yozgan asarni tarjima qilganining sababi asar markazida *Inson qalbi Ozodligi!* turganidadir: *Kim erk, hayot deb jang qilolsa har kun Erku hayot uchun o'sha munosib* so'zlari bir umr xalqi erku va ozodligi uchun so'z isyoni, she'r isyoni vositasida kurashib kelayotgan shoir E.Vohidovning hayot mazmuni, yuksak matlabi va e'tiqodidek yangraydi. E.Vohidov tarjimon bo'lib emas, Gyote bo'lib asarni yozgandek, har bir so'zni, mohiyatni, asarga xos ruhni qalbdan o'tkazdi, qalbdan yozdi.

O'zbek tilidagi "Faust"ni "Ruhlar isyoni" dostoni bilan qiyosan qaralganda Gyote asaridagi falsafa, mohiyat, betakror obrazlar, ramz va timsollar, ezgulik va yovuzlik, Faustga xos monologlar, bir so'z bilan aytganda, Ruhlar olami shoir qalbi, idroki, xayolini nechog'lik o'ziga maftun etganini ichki hissiyot bilan e'tirof etadi. "Ruhlar isyoni" dostonining "Isyon qo'shig'i" bo'limida butun asar mohiyatidagi eng buyuk ma'nini ayon qilar ekan, *Sababkormi yolg'iz taqdir Holingga saning? Bilasanmi, do'sting kimdir, Kimdir dushmaning?* kabi insonni o'z-o'zini taftish qiluvchi, o'zligini anglatuvchi, g'ofillikdan uyg'otuvchi da'vat savollar ta'sirida ulug' mohiyatga da'vat qiladi: *Asriy g'aflat yetar endi, Ey, mazlum inson! Uyg'onmoqning vaqti keldi, Bosh ko'tar, uyg'on!.. Qo'zg'al, Asriy qullik bukkan G'ururing haqqi...*⁵² Shoirlik – yurakda qon, silqib turgan jarohat ekanligini o'z hayotida qalban his qiladi. Shoir shu asosda Nazrul Islom tilidan millatga o'zligini anglatuvchi kurash yo'lini ko'rsatdi. U erkka tashna qalbi bilan ozodlik uchun kurashga boshlashda tobelik zulmati quchgan yo'llarni yoritib borishi uchun "Erk mash'alasi"ni yaratdi.

XX asr o'zbek she'riyatida yaratilgan asarlardagi istiqlool ruhi tasvirida jahon adabiyoti namoyandalarining ta'siri Rauf Parfi ijodining muhim qirralarisini tashkil etadi. Shoirning milliy o'zlik, milliy ruh, erk va ozodlik sog'inchi bo'rtib turgan asarlari yaratilishda Fitrat, Cho'lpon, Usmon Nosir kabi erkparast o'zbek ijodkorlari bilan birga P.Neruda, R.Thakur kabi jahon shoirlari ijodi o'ziga xos ta'sirlantiruvchi kuchga ega bo'ldi. Rauf Parfi o'zbek tiliga o'girgan, uning ijodiga kuchli ta'sir qilgan Jorj Bayronning "Manfred" dramatik dostonida ozod ruhli, tobelik va mutelikdan balandda bo'lgan Manfred irodasi, Bayron shaxsiyati, Rauf Parfi qalbi bilan bir nuqtada – Ozod Ruh nuqtasida tutashadi. "Pablo Neruda o'limiga" she'ri orqali "Ozodlikning so'ngsiz osmoni" bo'lgan Ozod qalbnig tasvirini yaratadi.

Afsus, uni o'ldirdilar:

Ufqning bo'yniga sirtmoq – dor tashlab,

O'ldirdilar qora mash'al tutgan qora shaytanat⁵³.

Agar E.Vohidov milliy o'zlikni anglash, ozodlik kurashi bobida Nazrul Islom bilan qanchalar darddosh bo'lsa, ayni ulug' matlab yo'lida Rauf Parfi shu

⁵¹ Воҳидов Э. Асарлар. 7-жилд: Таржималар. – Т.: "Шарқ" НМАК, 2021. – Б. 9.

⁵² Воҳидов Э. Асарлар: 2-жилд. – Т.: "Шарқ" НМАК, 2015. – Б. 214.

⁵³ Рауф Парфи. Сакина. Сайланма. – Т.: Мухаррир, 2013. – Б. 93.

zaminning ulug' farzandi R.Thakur bilan shunchalar qismatdoshday edi.

Shoir Shavkat Rahmon bu kurashda nafaqat uyg'oq va o'ktam qalbi bilan, balki dunyoning olis sarhadlarida ozodlik timsoliga aylangan ko'ngildosh shoirlar bilan ishtirok etdi. Shoir ispan she'riyatining yorqin vakillari Xuan Ramon Ximenes, Rafael Alberti, Garsia Lorca bilan oshno tutindi. Sh.Rahmon tarjimasida Lorca ijodidagi "gitara" shunchaki ohang taratmaydi, uning simlari shunchaki titramaydi, uning ohanglarida faryod, jasorat, uyg'otuvchi isyon nafasleri bor. Ozodlik dushmanlari milliy o'zlik, milliy ozodlik ruhini dillarda uyg'otayotgan o'sha gitara simlarini uzishga intiladi. Shoirning gitara timsolidagi "beshta xanjar sanchilgan yuragi" o'z navolari bilan hanuz yer yuzidagi ozodlik kurashchilariga jasorat ruhini bag'ishlab urib turibdi. Bu shoirlarni yorug' dunyodagi eng muqaddas tuyg'ular: ozodlik qayg'usi, vatan saodati, millat kamoli birlashtirib turadi. Jahon she'riyatini yuksakka ko'targan estetik prinsiplar aynan ana o'sha uchlik mohiyatida namoyon bo'ladi.

Uchinchi bobning uchinchi faslida "***O'zbek she'riyatida istiqloq orzusining ramziy-majoziy shakllardagi ifodasi***" tadqiq qilinadi.

XX asrning dastlabki yigirma yillik davridagi keskin o'zgarishlardan so'ng yangi o'zbek she'riyati 50 – 60-yillarga qadar asosan, mafkuraviy markazlarda yaratilgan g'oyaviy mezonlar, modellar asosida rivojlanib bordi. Mazkur ruh istiqloqgacha bir butun uzviylik, ruhiy uyg'oqlik bilan davom etdi. Y.Qosimovning "O'zbek she'riyatida poetik fikrning yangilanish jarayoni (60-yillar shoirlar avlodi misolida)" D.Tojibayevaning "XX asrning so'nggi choragi o'zbek she'riyatida poetik uslub muammolari", Sh.Nazarovaning "XX asr boshlari o'zbek she'riyatining yangilanish tamoyillari (yangi o'zbek she'riyati kontekstida)", S.Yoqubovaning "O'zbek jadid she'riyatida obraz va ramzlar poetikasi" mavzuidagi tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, milliy she'riyatda ramziy-majoziy oqimning paydo bo'lishi ijodiy rang-baranglikni ta'minlashda muhim rol o'ynadi.

Sharq she'riyatida shunday ramziy ifodalar borki, ular juda katta ma'nolarni o'zida aks ettiradi. Majnuntol timsoli garchi *majnunvash, ayriliq va hijronga, azob-u izzatga mahkum yurak* obraziday gavdalansa-da, uning mohiyatida chinornikidan kam bo'lmagan ramziy ma'nolar bor. Mirtemirning "Betobligimda" she'ridagi ichki izzat, o'ziga xos ramziy-majoziy ifoda, badiiy timsol majnuntol – ruhan shoirning so'nggi iltijosi, so'nggi ingrog'iday, majnuntolning so'lg'in barglarida titroq uyg'otadi.

Majnuntol tagiga o'tqazing meni,
Shu kungacha o'zni men cheklab bo'ldim.
Majnuntol tagiga o'tqazing meni,
*Men uchun yig'lasin, men yig'lab bo'ldim*⁵⁴.

E.Vohidovning "She'r va shaxmat" she'ri unda qo'llanilgan ramziy-majoziy ifodalarda yangi ma'nolarning bo'y ko'rsatishi bilan ajralib turadi. Shoir XX asrdagi behisob g'oyalar, fikrlar kurashini ifoda etayotgandek ko'rinsa-da, aslida mustabid tuzum tomonidan "ilgari surilayotgan" mafkuraviy bosimlar ruhini aks ettiradi:

⁵⁴ Миртемир. Сайланма. – Тошкент: Маънавият, 2012. – Б. 227.

Shaxmat taxtasida,
She'r maydonida
G'oyalar kurashi etadi davom⁵⁵.

Omon Matjon asarlarida turli ramziy-majoziy timsollarga e'tibor qaratar ekan, ular orqali ulug' ajdodlarning ilmiy-madaniy, adabiy meroslarini yoshlariga tanishtirish, milliy g'urur tuyg'ularini uyg'otishga intiladi. Uning milliy o'zlik ruhi, istiqlol sog'inchi, erkka tashnalik saodati, zulm va zo'rlik, istibdodni fosh etishga qaratilgan aksariyat she'rlari majoziy obrazlar, kutilmagan xulosalarga boyligi bilan ajralib turadi. Uning "Oqshom. Gavjum Parij" she'rida Eyfel minorasidan pastga nazar tashlar ekan, "Sena suvi to'rga tushgan Baliqlardek jimirlar", "Eyfel ajib jimjimador to'rqovoq – Odam unda balandlaru Uchib ketolmas biroq", deya alamli, qush bozoriga haqida esa "Qafaslardan mitti ko'zlar – Juft umidlar boqadi", deya bandilik ruhiyatini chizadi. Shoir majburan temir parda bostirilgan millat tarixi inqirozga uchragani – ildizlari qadimiyatga tutash daraxtlarni yashillik tark etib, zulmat qoplab boshlagani, daraxtlarning isyoni vulqonga aylanganini ifoda etadi:

Daraxtlar yonmoqda bugun dunyoda,
Yonib, o'zgalarni uyg'otmoq ne baxt!
Do'stlarimdir barcha yonayotganlar,
Yuragimdir – yonayotgan daraxt!⁵⁶

Millatga xos og'riqli muammolarni topib, yechimini axtarib, ularni haqqoniy, jonli obrazlarga ko'chirish, kitobxonning e'tiborini tortish oson emas. Bunda shoir qalbidagi isyon olovida nafaqat so'zlar, hatto harflar yonayotganday tasavvur uyg'otadi. Rauf Parfining qalami haqiqat siyohiga botirib olingan edi. A.Oripovga bag'ishlangan "Shoir" she'rida u shunday deydi: *Kimdir ul? Ermak deb kuylarmi, nahot, Soxta ehtiroslar chulg'armi uni? Yo'q!.. Yo'q yaralmadi u bilgan hayot, Hali tug'ilmadi shoirning kuni*⁵⁷. Muallif jafokash xilqat aro qalam bilan do'st tutinish oson emasligini yaxshi biladi. Osmonini qora bulutlar qoplab olgan, g'amgusor va motamsaro hoida turkiy olamga fikr sochish, dunyo tashvishi, insoniyat taqdiri haqida qayg'urish nihoyatda mushkul edi. Uning ijodiyoti qalb qa'ridagi nomsiz og'riqlarning so'zdagi suratlaridir.

Xurshid Davron she'rlari mazmun-mohiyati, ramziy-majoziy ifodalari, poetik kashfiyotlari o'tmish va bugunni bog'laydi. I.G'afurov aytganidek: "Tarix dam hayqiradi, dam uzoq sukutga ketadi bu she'rlarda. Xurshid Davronga san'at, kitoblar, tarix, qadim adabiyot ko'proq ilhom beradi"⁵⁸. "Tarobiy maqbarin buzmadilar, yo'q..." sarlavhali she'rda moziy alam va hasrat, isyon to'la qalbi bilan hayqiradi:

Buxoro arkimas qulab tushgan bu-
Bizning xotiramiz,
Bizning yodimiz.

⁵⁵ Воҳидов Э. Танланган асарлар. – Т.: "Шарк" НМАК, 2016. – Б.63.

⁵⁶ Омон Матжон. Иймон ёғдуси. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. – Б. 299.

⁵⁷ Рауф Парфи. Сакина. Сайланма. – Т.: Мухаррир, 2013. – Б. 103.

⁵⁸ Ғафуров И. Муқаддима ўрнида / Хуршид Даврон. Баҳордан бир кун олдин. – Т.: "Шарк" НМАК, 1997. – Б. 3.

Bu qora zulmatga qulagan yog‘du,
Vayrona ortida bizlar yotibmiz.

Shoir Usmon Azim ijodidagi turli ramz va obrazlar, majoziy ifodalar bilan yo‘g‘rilgan milliy ruhning nihoyatda yorqin, sof manzaralari o‘zbek poeziyasi uchun favqulodda hodisa hisoblanadi. Buni shoirning “Mirzo Ulug‘bekning o‘kinchi”, “Mo‘min Mirzoning so‘nggi qo‘shig‘i”, “Alpomish haqida shoir do‘stimga maxfiy xat”, “Sarbadorlar qo‘shig‘i”, “Bitik toshlar orzusi” kabi she‘rlari va “Baxshiyona” turkumida yanada yaqqolroq ko‘rish mumkin.

Eruvchanlik davri poetik tafakkurida qayta uyg‘ongan milliy o‘zlikni anglash ruhi, to milliy istiqloq qo‘lga kiritilgunga qadar bo‘lgan davr mobaynida avloddan avlodga, she‘rdan she‘rga ko‘chib, millat tafakkurida milliy o‘zlik ruhini shakllantirishga xizmat qildi.

Dissertatsiyaning **“XX asr so‘ngida o‘zbek she‘riyatida yangicha tafakkurning shakllanishi, ozod ruh talqinlari”** nomli to‘rtinchi bobining birinchi faslida **“Milliy o‘zlikka qaytish jarayonida ruhiy poklanish jarayonining badiiy talqinlari”** muhokama etiladi.

Milliy o‘zlikning shakllanishi milliy taraqqiyot tamoyillari, tabiiy muhit, tarbiyaviy tizim xususiyatlari, diniy-ma‘rifiy ta‘limot ta‘siri bilan uyg‘unlikda kechadi. XX asrning saksoninchi yillari oxiri – to‘qsoninchi yillar boshida sobiq ittifoq hududida tamomila yangi istiqloq tafakkuri shakllana boshladi. H.Karomatov⁵⁹, N.Rahimjonov⁶⁰, T.Shermurodov⁶¹ ishlarida diniy-ma‘rifiy mavzudagi she‘rlarni tadqiq qilindi. E.Vohidov sharq qo‘lyozmalari maxzanida bo‘larkan, u yerda sarg‘ayib yotgan “kishandagi kitoblar” holatidan iztiroblanib, “Xazina” she‘rini yozadi. Shoir garchi lutf ila Navoiy va Boburning nazm olamidagi yuksak maqomi to‘g‘risida so‘z yuritayotgan bo‘lsa-da, bunda diniy qadriyatlar bilan bog‘liq muqaddas tushunchalarning hayotdagi ma‘naviy o‘rniga ishora qiladi.

A.Oripov “Bu kun” (1967) g‘azalida bu mavzuni yana davom ettiradi:

Nun labing uzra sukun qoldi hiloldek holatim,
Harf o‘yin aylay desam, o‘zga erur imlo bu kun.

Shoirning “Haj daftari” turkumi shoirning Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy kabi ulug‘ mutafakkir shoirlar boshlab bergan ezgu an‘naning bardavomligi timsolidir. Shoir “Ka‘batulloh” she‘rida Allohning uyi timsolida Yaratganga iltijo qiladi: *Hanuz biri ikki bo‘lmagan eldan Keldim, madad bergil, yo Ka‘batulloh. Bag‘ri xun, toleyi kulmagan eldan Keldim, madad bergil, yo Ka‘batulloh.*

O‘zbek she‘riyatida yangicha tafakkur mahsuli bo‘lgan ruhiy poklanish jarayonining badiiy talqinlari bamisoli istiqloq umidi yanglig‘ shoirlar ijodida yillar davomida takomillashib, sayqallanib bordi. Omon Matjonning “Ming bir yog‘du” ma‘rifiy dostoni hikmat bilan yo‘g‘rilgan o‘ziga xos da‘vatnomadir:

Qayerdan tushyapti bu nur!

⁵⁹ Кароматов Х. Куръон ва ўзбек адабиёти. – Т.: Фан, 1993. – Б. 149.

⁶⁰ Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърляти. – Т.: Фан, 2007. – Б. 10.

⁶¹ Шермуродов Т. Жозиб изҳор излаб... – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. – Б. 256.

Kim tushiryapti uni ko‘zimizga?!⁶²

Shoir Navoiy asarlari qatlaridan tushayotgan hidoyat nuri, saodat yog‘dulariga ishora qiladi, uni milliy o‘zlik timsoli sifatida quvonch bilan “Bu nur bizniki!” deydi.

A.Suyun, S.Sayyid, M.Toir, Sh.Qurbon, M.Kenjabek, A.O‘ktam, A.Mahkam kabi shoirlar ijodida islomiy hikmatlar bilan yo‘g‘rilgan she‘rlar, qirq hadisning she‘riy talqini – arba‘inlar yaratildi. Usmon Azimning “Tazarru bog‘lari” turkum she‘rlarida Allohni, uning qudratini his qilib, she‘rxon ruhan poklanish, qalban ulg‘ayish bosqichlaridan o‘tadi. Xatolar, gunohlar uchun tavba qilar ekan, tazarru tuyg‘usi qalbdan toshib so‘zlarga aylanadi, Aynan ana o‘sha tazarrular jarayonida inson o‘zligini anglaydi, anglash jarayoni esa uni Haqqa yanada yaqinlashtiradi. Inson Allohni tanish orqali olamni idrok etadi. Yaratganni iymon bilan sevgan qalb, butun borliqqa o‘sha sevgi bilan qaraydi. Shundagina u Vatanni ham ichki bir bog‘liqlik, ruhiy ehtiyoj bilan sevadi, unga mustahkam bog‘lanadi: *Yo‘q, Boysunni sog‘inganim yo‘q, Tangrim, seni tanigunimcha!*

Shukur Qurbonning bu boradagi she‘riy topilmalari, poetik talqini, yuksak badiiyati, qisqa satrlarga boqiy hikmatlarni singdirish mahorati bilan ajralib turadi: *Umr bu – aslida bir zumlik sayr, Hamd, sano Olloh-la sirlashganlarga. G‘ofillik ko‘yida yurganlar xayr, Salom to‘g‘ri yo‘lga ergashganlarga*⁶³. Shukur Qurbon muqaddas hadislardagi ma‘nolarni qofiyadosh so‘zlar yordamida ta‘sirchanligini oshirishga alohida e‘tibor qaratadi.

Mirzo Kenjabek “Yoshlarga dil so‘zlarim” kitobida adabiyotning “adab” so‘zidan olinganini aytar ekan, ayni vaqtda, elning ruhiy-ma‘naviy hayotiga ta‘sir o‘tkazuvchi so‘z san‘ati ekanligini ham ta‘kidlaydi:

Agar Olloh uchun sevsang,
Muhabbat ham ibodatdir ⁶⁴.

Milliy o‘zlikni anglash o‘z tabiatiga ko‘ra emotsional hodisadir va uning asl qiyofasi millat ozodligi uchun kurash, uning manfaatlari, or-nomus va g‘ururini, qadriyatlarini himoya qilishda namoyon bo‘ladi. XX asrning 80-yillarida A‘zam O‘ktamning shu ruhdagi she‘rlari diqqatga sazovordir:

Bedardlarning she‘r deb yozgani,
Betahorat o‘qilgan namoz⁶⁵.

A‘zam O‘ktamning irfoniy she‘rlarida har bir so‘zning nafaqat o‘z tarovati va ohangi, balki qalbi, ruhi ham bordir. Milliy-ruhoniy tuyg‘ular, asar badiiy strukturasiidagi alohida unsurlar hukmron mafkura chegaralarini yorib o‘ta oldi. Milliy she‘riyat mohiyatidagi irfoniy ehtiyoj milliy ruhni uyg‘otish borasidagi maqsadlar mushtarakligi alohida ahamiyat kasb etdi.

To‘rtinchi bobning ikkinchi faslida ***“Istiqlol ruhi badiiy in‘ikosida ayollar she‘riyatining o‘ziga xos qirralari”*** tadqiq etiladi.

XX asr o‘zbek ayollar she‘riyati milliy o‘zlik ruhi istiqlolgacha yashab ijod

⁶² Омон Матжон. Минг бир ёғду. – Т.: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – Б. 47.

⁶³ Шукур Курбон. Сайланма. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2011. – Б. 238.

⁶⁴ <https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-zamonaviy-sheriyati/mirzo-kenjabek/>

⁶⁵ Худойбердиев А (Аъзам Ўктам) Фарғонадан келаман... // Совет Ўзбекистони санъати. – 1981. – 5-сон.

qilib kelgan Zulfiya, S.Zunnunova, G.Jo‘rayeva, G.Nurillayeva, E.Oxunova, H.Xudoyberdiyeva, O.Hojiyeva, T.Sodiqova, M.Murodova, M.Ergasheva, E.Siddiqova, Sh.Salimova, Q.Rahimboyeva qalbida necha yillar davomida yashab kelgan istiqloлга bo‘lgan “pinhona sog‘inch”, milliy o‘zlik ruhi, dard ila favvoraday otilib chiqqanini ko‘ramiz. N.Rahimjonovning “Davr va o‘zbek lirikasi”⁶⁶, Sh.Hasanovning “Doston tarkibi va tabiati”⁶⁷ Zulfiya, Saida Zunnunova, Halima Xudoyberdiyeva kabi shoirlar ijodiga nazar tashlangan.

Istiqloл Zulfiya ijodiga o‘zgacha shukuh va ruh bag‘ishladi. Shoira umrining so‘nggi yillarida “Xotiram siniqlari” dostoni bilan botiniy iztirob, donishmand qalb, shukronalik va umid bilan Istiqloлга peshvoz chiqadi:

Hurriyat keldingmi, nahotki kelding,
Kelar yo‘llaringda pinhona toldim...⁶⁸

Saida Zunnunovaning “Cho‘li iroq”⁶⁹ she‘rida millat tarixi, taqdiri, azobu iztiroblari, haq yo‘li, bu yo‘ldagi aldamchi saroblar, millat manglayiga ajin tushirgan g‘amlarni kuylaydi. “Cho‘li iroq” kuyi ruhini milliy o‘zlik timsoli sifatida satrlarga ko‘chiradi. “Bandilik, qullik asiriga aylanganlar boshidan hech bir andisha qilmay “manqurtlik kulohini yech” toki u o‘zligiga qaytsin, degan xitob bo‘ron yanglig‘ borliqqa taraladi: *O‘tmishni so‘zlama, o‘git kerakmas, Shu kuyini bir marta chalib bersang bas.*

O.Hojiyeva ijodidagi milliy o‘zlik ruhi, ayol latofati, qadriyatlar tarannumi, sog‘inch iztiroblari shoiraning ichki ruhiy dunyosining mujdalaridir. Shoiraning deyarli har bir she‘rida uyg‘otuvchi ruh bor:

...Zamin sukutida guvlaydi bedor
Yurak – kul ichida tirilgan Qaqnus⁷⁰.

Istibdod yillarida o‘ktamlilik bilan milliy o‘zlik, istiqloл sog‘inchi ruhini qalamga olgan shoirlar orasida G.Nurillayevaning o‘z ovozi bor. Shoira o‘z e‘tiqodi, yurak amri, qalb murodi haqida “Avtoportret” she‘rida shunday yozadi:

Mehrim – aql ko‘zim ochar zotlarga,
Muhabbat, adolat, e‘tiqodlarga.
